

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

KREDIT-IQTISOD FAKULTETI

“TASDIQLAYMAN”

“Kredit-iqtisod”

fakulteti dekani

_____ Saidov R.

“ ” _____ 2017 y.

“BANK HISOB VA AUDIT” KAFEDRASI

OMONILLAYEV ABROR NURILLO O‘G‘LI

MOL-MULK GAROVI VA UNI
QABUL QILISH TARTIBI

5230700 -“Bank ishi”- ta’lim yo’nalishi bo’yicha
bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Toshkent – 2017

MUNDARIJA		Betlar
KIRISH.....		3
1-BOB	TIJORAT BANKLARIDA MOL-MULK GAROVI MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY VA HUQUQIY ASOSLARI.....	7
1.1.	Kredit munosabatlari va ularning iqtisodiyotdagi o`rni.....	7
1.2.	O`zbekiston Respublikasi tijorat banklarida garov munosabatlarini tashkil etishning huquqiy asoslari.....	14
1.3.	Xorijiy banklarda mol-mulk garovining amaliyoti va uni O`zbekistonda qo`llash imkoniyati.....	19
	1-bob bo`yicha xulosa.....	29
2-BOB	O`ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING KREDIT MUNOSABATLARI VA UNDA GAROV MULKLARI BILAN ISHLASH TARTIBINING AMALIYOTI.....	30
2.1.	Tijorat banklari kreditlash amaliyotida garov mulklari bilan ishlash tartibi.....	30
2.2.	O`zbekistonda tijorat banklari kreditlarida mol-mulk garovini qabul qilish holati tahlili.....	44
2.3.	Kreditlarni qaytarish bilan bog`liq operatsiyalar va ularning tahlili.....	52
	2-bob bo`yicha xulosa.....	56
3-BOB	KREDITLASH MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHDA GAROV MULKLARI BILAN ISHLASH TARTIBI VA UNDAGI MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH YO`LLARI.....	57
3.1.	Kredit munosabatlarini rivojlantirishda garov mulklarini takomillashtirish masalalari.....	57
3.2.	Respublikamiz tijorat banklarida mol-mulk garovi bilan bog`liq muammolarni bartaraf etish yo`llari.....	62
	3-bob bo`yicha xulosa.....	67
XULOSA VA TAKLIFLAR.....		68
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....		71

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatida garov munosabatlarini takomillashtirish, kredit xizmatlarini taqdim etishda ta'minot turlaridan keng doirada foydalanishni joriy etish hamda aholining bank kreditiga ehtiyoj sezgan qatlamlariga imtiyozli kreditlar ajratishda ta'minot turlarini yengillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Umuman olganda, xususiy mulk va tadbirkorlikni kreditlash hozirgi davrda keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Xususan, prezidentimizning "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" nomli kitoblarida 2017-yilning 14-yanvar kuni bo'lib o'tgan, mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi o'rin olgan bo'lib, unda aynan, xususiy mulk va tadbirkorlik rivoji, yil yakulari bo'yicha ba'zi ko'rsatkichlar keltirilgan. Ya'ni, xususiy mulk va tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab quvvatlash va himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi 2016-yilda 32 mingga yaqin yoki 2015-yilga nisbatan 18 foizga ko'p kichik biznes subyektlari tashkil qilinishigaturtki bo'ldi. Kichik biznesning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi hissasi 56,9 foizgacha, sanoatda esa 45 foizgacha oshdi¹.

Hurmatli prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari o'laroq kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ularga qo'shimcha yordam sifatida kreditlash tizimini yaxshilash va yengillashtirish ular faoliyati yanada kengayib, rivojlanishi uchun zamin yaratmoqda. Bu boradagi garov munosabatlarini ham yengillashtirish va osonlashtirish ular faoliyatiga faqat ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak"- Toshkent: "O'zbekiston", 2017-yil.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, banklar faoliyatidagi eng asosiy muammolardan biri, berilgan kreditlarning qaytarilmasligidir. Ushbu muammoni qisman hal etish, ya'ni mijoz tomonidan kreditni qaytara olmaslik riskini kamaytirish yo'llaridan biri mijoz mulkining ma'lum qismini berilgan kredit uchun garov sifatida talab qilishdir. Bugungi kunda Respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank kreditlari hajmining oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko'payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy kuzatib borish asosiy ishi deb talab qilinmoqda.

O'zbekistonda moliya-bank tizimi faoliyati samadorligini ta'minlash, banklarda kredit operatsiyalari hamda garov munosabatlarida ijobiy o'zgarishlarga erishish nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, bitiruv-malakaviy ishimizda bankning aktiv operatsiyalari tarkibida muhim o`rin tutuvchi kredit operatsiyalari hamda ushbu operatsiyalarning ajralmas qismi hisoblanuvchi garov munosabatlarini, mol-mulk garovini qabul qilish tartibini, ularni rivojlantirish bilan bog'liq shart-sharoitlarni o'rganish o'ta muhim bo'lib ushbu ishimizning dolzarbligidan dalolat beradi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kredit operatsiyalarining ajralmas qismi hisoblangan garov munosabatlari, mol-mulk garovini qabul qilish tartibi hamda kreditlarning qaytarilish jarayonlarini takomillashtirib borishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bitiruv malakaviy ishini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadidan kelib chiqqan holda tadqiqot ishida quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi:

- tijorat banklarining kredit operatsiyalari, kreditlar qaytarilishi ta'minoti sifatida mol-mulk garovining mazmuni va mohiyatini ochib berish;

- tijorat banklarining kredit operatsiyalarining ahamiyati va ular bog'liq ravishda garov munosabatlarining mamlakatimiz bank tizimi rivojlanishiga bo'lgan tasiri va ahamiyatini yoritish;

- O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida mol-mulk garovini qabul qilish holati va ularni takomillashtirish yo'llarini aniqlash;

- "Orient Finans" XATBning kredit operatsiyalari bo'yicha mol-mulk garovini qabul qilish tahlilini yoritish.

- tijorat banklarida mol-mulk garovi bilan bog'liq munosabatlarni oqilona tashkil etishning asosiy yo'nalishlarini asoslash.

Tadqiqot ob'yekti yurtimiz va chet el tijorat banklarining kredit va garov munosabatlaridagi faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti mijozlarni jalb etish, barqaror iqtisodiy o'sishlarga erishish maqsadida tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalarini hamda garov munosabatlarini muvofiqlashtirishdan iborat.

Bitiruv malakviy ishi mavzusining nazariy-amaliy ahamiyati. Tijorat banklarining kredit ta'minotini qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan muammolar bo'yicha o'zining muhim hissalarini qo'shgan xorijlik olimlari qatoriga I.O. Lavrushin, G.N.Beloglazova, L.P.Krolivetskaya, I.D. Mamonova, V. Afanasev, V.A. Rube, L.S. Blyaxman, A. Shulus, V.S. Puchkov, F. Xayek, R.S. Bekov va boshqalarni alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Ushbu muammolar bo'yicha O'zbekiston Respublikasida bank moliya-kredit masalalarini o'rganishda Respublikaning bir qator iqtisodchi olimlari Yo.A. Abdullaev, T.Karaliyev, Sh.Z.Abdullaeva, O.O.Olimjonov, M.Sh.Sharifxo'jaev, A.Q.Qodirov, S.S.G'ulomovlarni ko'rsatish mumkin. Iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, tijorat banklarining garov predmetini qabul qilish masalalari amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlarda va ushbu sohada iqtisodiy adabiyotlarda hamda olimlarning ilmiy asarlarida to'liq o'z ifodasini topmagan. Demak, bu sohada jiddiy, ilmiy izlanishlar olib borish kerakligini taqozo etadi.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi. Bitiruv malakaviy ishi tarkibiy jihatdan kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining 1-bobi tijorat banklarida mol-mulk garovi munosabatlarini tashkil etishning iqtisodiy va huquqiy asoslariga bag'ishlangan bo'lib, unda kredit munosabatlari va ularning ahamiyati, garov munosabatlari va ularning huquqiy asoslari, xorijiy mamlakatlarda garov mulkini qabul qilish bilan bog'liq masalalar keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishining navbatdagi 2-bobi tijorat banklarida mol-mulk garovi munosabatlari tashkil etish tartibi, garov mulkini qabul qilish tartibi va holati, garov mulki bo'yicha tahliliy qismdan iborat.

So'nggi 3-bobda esa garov mulkini qabul qilishni takomillashtirish masalalari va bu boradagi muammolar o'rin olgan.

Bitiruv malakaviy ishi 74 bet, 11 ta rasm va 4 ta jadvaldan iborat.


1-BOB. TIJORAT BANKLARIDA MOL-MULK GAROVI MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY VA HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Kredit munosabatlari va ularning iqtisodiyotdagi o`rni

Kredit munosabatlari tijorat banklari faoliyatida alohida o`rin tutuvchi bank tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Yurtimizda faoliyat olib boruvchi banklarning asosiy daromad keltiruvchi operatsiyalaridan biri aynan kredit operatsiyalari hisoblanadi.

Kredit - bu bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash hamda ularni pulga ehtiyoj sezgan yuridik va jismoniy shaxslarga ishlab chiqarish va boshqa ehtiyojlari uchun ma'lum muddatga, foiz to'lovlari bilan qaytarish shartida qarzga berish munosabatlarini ifodalaydi².

Kredit munosabatlari o`z ichiga bir qator tarkibiy qismlarni qamrab oladi.



1-rasm. Kredit munosabatlarining tarkibiy qismlari³

² www.wikipedia.org – Vikipediya ma'lumotlar bazasi veb sayti.

³ Azizov U., Qoraliyev T., Boboqulov T., Abdullayeva Sh. va boshqalar. Bank ishi. Darslik. -T.: "Fan va texnologiya", 2016-yil, 220-bet.

Kreditlash obyekti – bu qarzga olingan pul yoki tovar shaklidagi moddiy boyliklardan iborat. Kredit subyektlari esa davlat korxonalari va tashkilotlari, kooperativlar, ishlab chiqarish subyektlari, boshqa banklar va boshqalar bo'lishi mumkin. Kredit ta'minoti esa kredit qaytarilishini kafolatlash maqsadida taqdim etilgan garov predmeti, kafillik yoki kafolat hisoblanadi. Ushbu uch bazaviy element kredit tizimi sifatida harakat qiladi.

Kredit muomalasi qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatdir. Lekin har qanday qarz munosabati ham kredit bo'la olmaydi. Kredit munosabatida olingan mablag' qaytarib berilishi, foydalanilgani uchun haq (kelishilgan foizda) to'lanishi, muddatli, ma'lum tovar va nomoddiy aktivlar bilan ta'minlangan bo'lishi, maqsadli ishlatilishi shart⁴.

Banklarning kredit operatsiyalari – bu jalb qilingan mablag'larni banklar tomonidan o'z nomidan qaytarishlilik, muddatlilik va to'lovlilik shartlari asosida joylashtirish bilan bog'liq operatsiyalar hisoblanadi. Ssuda operatsiyalari bank operatsiyalarining asosini tashkil etadi. Ularga bank aktivlarining 50 foizidan ortig'i to'g'ri keladi. Aynan kredit operatsiyalari, yuqori riskliligiga qaramasdan banklarning eng jozibador va ko'p daromad keltiruvchi operatsiyalari hisoblanadi⁵.

Kreditlar mamlakatlar iqtisodiyotlarida bir qancha shakllarda amal qiladi. Misol uchun, tijorat krediti biror xo'jalik yurituvchi sub'yekt tomonidan berilishi mumkin, ya'ni tovar yoki xizmatlarini uni taqdim etuvchidan qarz evaziga olish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bank krediti esa jismoniy va yuridik shaxslarga pul shaklida banklar tomonidan taqdim etiladi. Kreditning aynan ushbu shakli yurtimizda anchagina keng tarqalgan hamda yanada taraqqiy etib bormoqda. Davlat krediti esa davlatning qarz beruvchi va qarz oluvchi sifatida ishtirokini nazarda tutadi. Davlat qarz beruvchi sifatida bank tizimi orqali byudjetdan tarmoq, hudud, korxonalarga kredit ajratgan holda moliyalashtiradi. Qarz oluvchi sifatida aholiga davlat zayomlari, obligatsiyalarini sotish bilan jismoniy yoki yuridik

⁴ www.wikipedia.org – Vikipediya veb sayti ma'lumotlari.

⁵ Белоглазова Г.Н., Кроливецкая Л.П. Банковское дело. Учебник для вузов. 2-э изд. “Питер”, 2010, 165-с.

shaxslardan qarz oladi, natijada ichki davlat qarzi, chet davlatlardan olingan kreditlar hisobidan tashqi davlat qarzi paydo bo'ladi. Iste'mol krediti — aholiga iste'mol tovarlari, xizmatlarni nasiyaga sotish, uy-joy qurilishi xarajatlari uchun, lombardlardagi mulk garovi hisobiga, o'zaro yordam kassasi qarzlar va boshqa ko'rinishlarda beriladi. Kreditning yana bir shakli hisoblangan xalqaro kredit muddatli, qaytimli va foiz to'lash shartlari bilan bir mamlakatdagi kreditor tomonidan ikkinchi mamlakatdagi qarz oluvchiga pul yoki tovar shaklida beriladigan qarz, shuningdek, chet el obligatsiyalari, chet el korxonalari aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlariga foyda olish maqsadlarida kapital qo'yish.

Kredit iqtisodiyotda muhim vazifalarni bajaradi, ularning orasida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash alohida o'rinda tutadi. Kredit yordamida kapitalni bir tarmoqdan ikkinchisiga, bir mulkdordan boshqasiga oqib o'tishi ta'minlanadi. Shu bilan ishlab chiqarishni kengaytirish, iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, mablag'larni kapital qo'yishning eng foydali va istiqbolli yo'nalishlarida to'plash imkoniyatlari yuzaga keladi. Kredit resurslarini banklar tomonidan tartibga solish mexanizmlari yordamida pul aylanmasi toraytiriladi yoki kengaytiriladi, to'lovga qobil talabning ko'payishi yoki qisqarishi yuz beradi, bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish rivojiga rag'bat beradi.

Kredit munosabatlarida uning barqaror bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bunga erishish uchun mamlakatda kredit siyosati olib boriladi. Kredit siyosati tarkibida banklarning foiz siyosati va ajratilayotgan kreditlarning yo'nalishlari, ularning qaytarilishini ta'minlash, kreditlarning samaradorligini oshirish, imtiyozlar, yuz berishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar oldini olish tadbirlari katta rol o'ynaydi. O'zbekistonda tijorat banklarning kredit siyosati mamlakat iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarini jadal rivojlantirishga yo'naltirilgan. Jumladan, mamlakat tijorat banklari ham yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga kreditlar ajratish bilan birga kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashni ham amalga oshirmoqda. Imtiyozli shartlarda ajratilayotgan kreditlar va mikrokreditlar shular jumlasidandir. Ayniqsa, so'nggi vaqtlarda muhtaram

prezidentimizning farmon va qarorlariga asosan, kredit resurslariga ehtiyoj sezayotgan tadbirkorlik subyektlariga, hamda ustuvor ravishda kasb-hunar kolleji bitiruvchilari va yosh oilalarga o'z tadbirkorlik faoliyatlarini amalga oshirish uchun imtiyozli kreditlar taqdim etish yo'lga qo'yilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PQ-4947-sonli qarorida tijorat banklari tomonidan ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va kengaytirish hamda ularning ishlab chiqarish faoliyati uchun xom ashyo va materiallarni sotib olishda moliyaviy resurslarga bo'lgan talablarniqondirish maqsadida iqtisodiyot hamda kichik biznes sohasi subyektlarini kreditlash hajmini 1,2 barobar oshirish ko'zda tutilgan⁶.

Bevosita kreditlash jarayoniga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, turli xil korxonalar, tashkilotlar, davlat va uning muassasalari hamda aholining keng qatlami kredit munosabatlarining sub'ektlari hisoblanadilar. Sanab o'tilgan sub'ektlarning aynan har biri bir vaqtning o'zida ham qarz oluvchi va ham qarz beruvchi o'rnida chiqishi mumkin. Kredit munosabatlarining ob'ekti esa jamiyatda vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'laridir. Takror ishlab chiqarish jarayonida tovarlar, iqtisodiy resurslar va pul mablag'larining doiraviy aylanishi kredit munosabatlarining mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Shu bilan birga doiraviy aylanish jarayonida muqarrar suratda vaqtincha bo'sh turadigan pul mablag'lari va boshqa pul resurslari kredit mablag'larining manbaini tashkil qiladi.

Takror ishlab chiqarish jarayonida vaqtincha bo'sh pul resurslari hosil bo'lishi bilan bir vaqtda, iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlari va sohalarida qo'shimcha pul mablag'lariga ehtiyoj paydo bo'ladi. Avvalo kredit qayta taqsimlash vazifasini bajaradi. Uning yordamida korxonalar, davlat va aholining bo'sh pul mablag'lari ssuda fondi shaklida to'planib, keyin bu mablag'lar kredit

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PQ-4947-sonli qarori.


mexanizmi orqali iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlarini hisobga olib qayta taqsimlanadi. Ya'ni, bir vaqtning o'zida bir qancha subyektlarda bo'dh pul mablag'lari bo'lsa, shu vaqtning o'zida pul mablag'lariga ehtiyojmandlar ham yetarlicha topiladi. Kredit mexanizmi esa ikkala tomonlar uchun ham foydali bitim hisoblanadi. Shu orqali kredit ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, kredit pulga tenglashtirilgan to'lov vositalarini (veksel, chek, sertifikat va h.k.) yuzaga chiqarib, ularni xo'jalik amaliyotiga joriy etish vazifasini bajaradi, hamda pul-kredit tizimini yanda takomillashtiradi. Uchinchidan, kredit naqd pullar o'rniga kredit pullarni rivojlantirish va pul muomalasini jadallashtirish bilan muomala xarajatlarini tejash vazifasini bajaradi. To'rtinchidan, kredit ssuda fondining harakati (qarz berish va qarzni undirish) orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasini bajaradi. Beshinchidan, kredit o'z muassasalari orqali iqtisodiy sub'ektlar faoliyati ustidan nazorat qilish vazifasini bajaradi. Nihoyat, kreditning o'ziga xos vazifasi iqtisodiyotni tartibga solish hisoblanadi. Bunda kredit uchun foiz stavkalarini tabaqalashtirish, davlat tomonidan kafolatlar va imtiyozlar berish kabi usullardan foydalaniladi. Kredit bir qator turlarda amalga oshiriladi.

Kredit yordamida tovar - moddiy boyliklari, turli mashina va mexanizmlar sotib olinadi, iste'molchilarning mablag'lari etarli bo'lmagan sharoitda to'lovni kechiktirib tovarlar sotib olishlari va boshqa har xil to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Kredit iqtisodiy kategoriya bo'lib, ijtimoiy munosabatlarning aniq bir ko'rinishi sifatida yuzaga chiqadi. Kredit har qanday ijtimoiy munosabat emas, balki ijtimoiy ishlab chiqarish mahsuli, qiymatning harakati, qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyadir. Kreditning mohiyati uning ichki belgilarini ochib berishga qaratilgan. Kreditning mohiyatini ochish - bu uning sifatlarini, kreditning muhim tomonlarini, uni iqtisodiy munosabatlar tizimining bir elementi sifatida ko'rsatuvchi asoslarini bilish demakdir.

Kredit tovar-pul munosabatlari mavjud sharoitdagi takror ishlab chiqarish jarayonining ajralmas bir qismi bo'lib, tovar ishlab chiqarish kredit munosabatlari vujudga kelishining tabiiy asosi hisoblanadi. Kreditning vujudga kelishini nafaqat ichki iste'mol uchun tovar ishlab chiqarish doirasidan emas, balki asosan yuridik jihatdan mustaqil bir-biriga mulkdor sifatida qarama-qarshi turuvchi va iqtisodiy munosabatlarga kirishishga tayyor tovar egalari faoliyat ko'rsatayotgan muomala doirasidan qidirish kerak. Ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishidagi va fondlarning bir marta aylanishidagi qiymatning harakati qisqa muddatli kredit munosabatlari paydo bo'lishining iqtisodiy asosidir. Korxona ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishidagi tebranishlar zaminida ishlab chiqarish vaqti bilan mahsulotlarni sotish vaqtining mos kelmay qolishidan vujudga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etuvchi munosabatlarning paydo bo'lishi tabiiy holga aylanadi. Bu munosabatlar mablag'larning vaqtincha bekor turib qolishi bilan bu mablag'larga bo'lgan ehtiyoj o'rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etadi. Bunday munosabatlar odatda kredit munosabatlari deb yuritiladi va kredit munosabatlari asosida iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan kredit kategoriyasi yuzaga keladi. Kredit orqali jamiyatimizda quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin: birinchidan, fondlar aylanishi jarayonida chetga chiqib bo'sh qolgan mablag'larning harakatsiz turib qolishining oldini olinadi; ikkinchidan, takror ishlab chiqarishni keng doirada uzluksiz davom ettirishga imkoniyat yaratiladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, kreditning ob'ektiv zarurligi takror ishlab chiqarish jarayonida fondlarning doiraviy aylanishi qonuniyatlariga asoslangandir.

Kredit munosabatlari iqtisodiyotda mavjud aniq uslubiy asoslarga tayanadi. Uning asosiy elementlari bo'lgan ssuda kapitali bozori operatsiyalari ma'lum tamoyillar asosida olib boriladi. Bu tamoyillar kredit munosabatlari rivojlanishining birinchi bosqichida ko'zga tashlangan edi, keyinchalik esa ular umumdavlat va xalqaro kredit qonunchiligida yaqqol o'z aksini topdi. Iqtisodiy kategoriya sifatida kredit bir necha tamoyillarga ega. Bular kreditning qaytib berishliligi, kreditning muddatliligi, kreditning ta'minlanganligi, maqsadliligi va

to'lovlilik tamoyillaridir. Biz ko'rib o'tmoqchi bo'lgan tamoyili kreditning ta'minlanganligidir. Bu tamoyil yordamida kreditning iqtisodiyotni rivojlanishida qiymat va moddiy ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlik ta'minlanadi. Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundaki, bunda xo'jalik aylanishida ishtirok etuvchi bank mablag'larining har bir so'miga muayyan miqdorda moddiy boyliklar qarama-qarshi turishi kerak. Banklar tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga berilgan har qanday kreditlar to'liq tovar-moddiy boyliklari bilan yoki ma'lum xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Tarmoqlarga ta'minlanmagan kreditlarning berilishi bank kreditlarining bankka qaytib kelmasligiga asos bo'ladi. Bu o'z navbatida bankning likvidligiga va pul muomalasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar tomonidan beriladigan kreditlarning tovar moddiy-boyliklari va xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishiga alohida e'tibor berilmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar faoliyatidagi eng asosiy muammolardan biri berilgan ssudalarning qaytarilmasligidir. Ushbu muammoni qisman hal etish, ya'ni mijoz tomonidan kreditni qaytara olmaslik riskini kamaytirish yo'llaridan biri mijoz mulkining ma'lum qismini berilgan kredit uchun garov sifatida talab qilishdir.



2-rasm. Garov predmetining tasniflanishi⁷

Kreditning qaytarilishini ta'minlash mexanizmi - bu bir tomondan iqtisodiy jarayonlar asosi, ikkinchi tomondan esa kreditor va qarz oluvchi o'rtasidagi huquqiy munosabatlar demakdir. Kredit qaytarilishining iqtisodiy asosini ishlab chiqarish jarayonlari ishtirokchilarining aylanma (oborot) fondlari hamda ularning realizatsiyasi, shuningdek, kredit amal qilishining huquqiy asoslari tashkil etadi. Ya'ni, kredit va uning muomalada bo'lishi, kreditning ta'minoti, garov munosabatlari - bularning barchasi iqtisodiy mazmunga ega bo'lishi bilan bir qatorda ijtimoiy jarayonlar hamdir. Ular amalda bo'lishlari uchun ma'lum bir me'yoriy hujjatlar huquqiy asos bo'lib xizmat qilishi kerak.

1.2. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida garov munosabatlarini tashkil etishning huquqiy asoslari

Kreditning ta'minlanganligi deganda, beriladigan kreditning qaytarilishi aniq moddiy qimmatliklar, pul hujjatlari yoki pul mablag'larini olishga bo'lgan huquq bilan kafolatlab qo'yilgan bo'lishi tushuniladi. Kreditning ta'minlanganligi aniq garov ob'ektini tegishli tartibda rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Kreditning ta'minlanganligiga mazmunan quyidagicha qarash mumkin, kreditning ta'minlanganligiga iqtisodiy kategoriya sifatida yondashiladigan bo'lsa, u ma'lum bir moddiy boylik yoki xarajat uchun beriladi, shu bois doimo har bir so'm kredit bir so'mlik tovar-moddiy qiymatliklar, xarajatlar, xizmatlar va boshqalar bilan ta'minlanishi lozim.

Kreditning ta'minlanganlik tamoyili deganda, ko'zda tutilmagan holatlarda, qarzorning moliyaviy holati yomonlashganida kredit qaytarilishi bo'yicha bank tomonidan ikkilamchi ta'minot manbalariga e'tibor qaratilishi tushuniladi⁸.

⁷ Белоглазова Г.Н., Кроливецкая Л.П. Банковское дело. Учебник для вузов. 2-э изд. "Питер", 2010, 174-с.

⁸ Белоглазова Г.Н., Кроливецкая Л.П. Банковское дело. Учебник для вузов. 2-э изд. "Питер", 2010, 173-с.

Mol-mulk garovi - bu kredit ta'minotining eng ko'p tarqalgan shakllaridan hisoblanadi. Mulk garovi garov shartnomasi orqali rasmiylashtiriladi. To'lov majburiyati bajarilmaganda bank ushbu garovni sotish orqali kreditni qoplashi mumkin. Mol-mulk to'liq xo'jalik yuritish huquqi bilan biriktirib qo'yilgan korxonaning mol-mulklari, shu mol-mulk egasining yoki u vakolat bergan organning roziligi bilan umuman korxonani, mulkiy majmualar sifatida uning tuzilmalari va bo'linmalarini, shuningdek alohida binolar va inshootlarni garovga olish mumkin.

Mol-mulk garovi – bank krediti qaytarilishini ta'minlashning keng tarqalgan usuli. Garov mulki garov shartnomasida rasmiylashtiriladi, ikki tomonlama imzolanadi hamda u qarzdor tomonidan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda kreditorga garov mulki qiymatidan qanoatlantirish huquqini beradi⁹.

Garov munosabatlari - bularning barchasi iqtisodiy mazmunga ega bo'lishi bilan bir qatorda ijtimoiy jarayonlar hamdir. Ular amalda bo'lishlari uchun ma'lum bir me'yoriy hujjatlar huquqiy asos bo'lib xizmat qilishi kerak.

Respublikamiz bank amaliyotida berilayotgan kreditlar uchun ta'minot talab qilish hamda garov sifatida olish, uning turlari mexanizmi, kredit qaytmagan hollarda ta'minotni realizatsiya qilish tartiblarini belgilab beruvchi maxsus va umumiy huquqiy hujjatlar mavjud.

Tijorat banklari tomonidan kreditlash faoliyatini amalga oshirishda garov mexanizmining huquqiy asosi bo'lib O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasining “Garov to'g'risida”gi, “Ipoteka to'g'risida”gi, “Garov reestri to'g'risida”gi qonunlar singari me'yoriy-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqini majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi garov hisoblanadi¹⁰.

⁹ Лаврушин О.И. Банковское дело. Учебное пособие. 3-э изд. Перераб и доп/ М. КНОРУС, 2009, 248-с.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining “Garov to'g'risida”gi qonuni. 1992-yil 9-dekabr, 1-modda.

Garovga ko'ra qarzdor (garovga qo'yuvchi) garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditor (garovga oluvchi) bu majburiyat bo'yicha garovga qo'yuvchi tomonidan garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan boshqa kreditorlarga qaraganda imtiyozli suratda qanoatlantirilishiga haqli bo'ladi, qonunda belgilab qo'yilgan hollar bundan mustasno. Qonun bo'yicha haqiqiy bo'lgan har qanday majburiyatning: zayom, bank krediti, ijara, oldi-sotdi, yuklarni tashish va huquqning har qanday sub'ektlari (jismoniy va yuridik shaxslar, davlat) o'rtasidagi boshqa majburiyatlarning bajarilishi garov bilan ta'minlanishi mumkin. Majburiyat pul birliklarida (milliy valyutada yoki chet el valyutasida) ifodalangan bo'lishi lozim.

Garovning vujudga kelishini nazarda tutuvchi qonunda qanday majburiyatga ko'ra va aynan qaysi mol-mulk garovda turgan deb e'tirof etilishi lozimligi ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Garov turlariga keladigan bo'lsak, ular quyidagi turlarga bo'linadi: zakalat, ipoteka, shuningdek huquq garovi.

Har qanday mol-mulk, shu jumladan ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar) garov narsasi bo'lishi mumkin, muomaladan chiqarilgan mol-mulk, kreditorning shaxsi bilan uzviy bog'liq bo'lgan talablar, xususan hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablar, alimentlar to'g'risidagi talablar hamda boshqa shaxsga berilishi qonun bilan man etilgan boshqa talablar bundan mustasno¹¹.

Kredit olish maqsadida ko'chmas mulkning garovga qo'yilishi ipoteka hisoblanadi, hamda ipoteka bilan bo'g'liq masalalar O'zbekiston Respublikasining "Ipoteka to'g'risida"gi qonunida o'z aksini topgan.

Ko'chmas mulk, shu jumladan, binolar, inshootlar, ko'p kvartirali uylardagi kvartiralar, korxonalar, boshqa mulkiy majmualar, yuridik va jismoniy shaxslar mulki bo'lgan savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlari, shuningdek, turar joylar ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga, qonunda ko'chmas mulk jumlasiga kiritilgan va ularga bo'lgan huquqlar qonun hujjatlarida belgilangan

¹¹ O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi qonuni. 1992-yil 9-dekabr, 5-modda.

tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan boshqa mol-mulk ipoteka narsasi bo'lishi mumkin¹².

Garov to'g'risidagi shartnomada, qonun asosida vujudga keladigan garovga nisbatan esa qonunda garovga qo'yuvchi kelgusida qo'lga kiritadigan ashyolar va mulkiy huquqlar garovi nazarda tutilishi mumkin. Agar shartnomada yoki qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, mol-mulkka nisbatan garov huquqi mol-mulkning narsalarini va tarkibiy samarasini ham o'z ichiga oladi. Garovga qo'yilgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olingan samara, mahsulot va daromadlarga nisbatan garov huquqi shartnomada nazarda tutilgan hollarda tatbiq etiladi.

Bir nechta shaxsga birgalikda qarashli bo'lgan mol-mulk yoki huquqlar garovida esa birgalikdagi umumiy mulk bo'lgan mol-mulk faqat barcha mulkdorlarning yozma roziligi bilan garovga berilishi mumkin. Bir nechta shaxsga birgalikda qarashli bo'lgan huquq uning barcha egalari roziligi bilangina garovga qo'yilishi mumkin. Mulkdorning umumiy ulushli mulkdagi o'z ulushini garovga qo'yishi qolgan mulkdorlarning rozilik berishini talab qilmaydi¹³.

Mulk huquqining keyinchalik boshqa mulkdorga o'tishi to'liq xo'jalik tasarrufi yoki bevosita boshqaruvi ostidagi mol-mulk garoviga daxl qilmaydi. Ijarachi ijara shartnomasida nazarda tutilgan hollardagina ijaraga beruvchining roziligisiz o'zining ijaraga oid huquqlarini garovga o'tkazishga haqlidir. Boshqa davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, garovga oid munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari bilan ayni bir xil huquqlardan foydalanadilar hamda ayni bir xil majburiyatlarga ega bo'ladilar.

Mol-mulk qisqa muddatli (olti oyga qadar) kreditga sotilgan taqdirda, garov huquqi sotib oluvchi va mol-mulk savdosining ana shu turini amalga

¹² O'zbekiston Respublikasining "Ipoteka to'g'risida"gi qonuni. 2006-yil 4-oktyabr, 6-modda.

¹³ O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi qonuni. 1992-yil 9-dekabr, 7-modda.

o'shish o'z faoliyati doirasiga kiradigan sotuvchi o'rtasida shartnoma tuzilgan paytdan vujudga keladi.

Garov to'g'risidagi shartnomada tomonlarning nomi, joylashgan manzili (yashash joyi), garov turi, garov narsasi va uning bahosi, mohiyati, miqdori va garov bilan ta'minlanadigan majburiyatning bajarilish muddati, garovga qo'yilgan mol-mulkning ro'yxati, shuningdek tomonlarning kelishuviga erishilgan boshqa ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi zarur. Unda garovga qo'yilgan mol-mulk tomonlarning qaysi birida ekanligi ham ko'rsatilishi shart. Ya'ni, garov shartnomasi o'z ichiga garov to'g'risidagi zaruriy ma'lumotlarni oladi.

Garov narsasini baholash garovga qo'yuvchi bilan garovga oluvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra yoki baholash faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq garov narsasini baholashdan o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Garov narsasini almashtirishga, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, garovga oluvchining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Agar garov narsasi nobud bo'lgan yoki shikastlangan yohud unga bo'lgan mulk huquqi yo xo'jalik yuritish huquqi qonunda belgilangan asoslarga ko'ra bekor qilingan bo'lsa, garovga qo'yuvchi oqilona muddatda (nizo chiqqan taqdirda esa sud belgilagan muddatda) garov narsasini tiklashga yoki shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, uni teng qiymatli boshqa mol-mulk bilan almashtirishga haqli.

Garovga oluvchi nobud bo'lgan garov narsasi uchun uning haqiqiy qiymati miqdorida, garov narsasi shikastlanganligi uchun esa garov narsasi garovga oluvchiga topshirilayotganda baholangan summaga qarab qiymat qancha summaga kamaygan bo'lsa, shuncha summa miqdorida javob beradi.

Agar garov narsasi shikastlanish natijasida belgilangan maqsad bo'yicha foydalanib bo'lmaydigan darajada o'zgargan bo'lsa, garovga qo'yuvchi undan voz kechishga hamda uning nobud bo'lganligi uchun tovon to'lanishini talab qilishga haqli, u bilan garovga oluvchi o'rtasida nobud bo'lgan yoki shikastlangan mol-mulkni tiklash yoki almashtirish to'g'risida yozma ravishda bitim tuzilgan hamda

garovga oluvchi bu bitimning shartlarini lozim darajada bajarayotgan hollar bundan mustasno.

Shartnomada garovga oluvchining garov narsasi nobud bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida garovga qo'yuvchiga yetkazilgan boshqa zararni ham to'lash majburiyati nazarda tutilishi mumkin.

Garovda turgan mol-mulkni garovga qo'yuvchi tomonidan boshqa shaxsga (garovga oluvchiga) boshqa talablarni bajarish uchun berish navbatdagi garov hisoblanadi.

Agar garov to'g'risidagi oldingi shartnomalarda navbatdagi garov taqiqlab qo'yilgan bo'lmasa, navbatdagi garovga yo'l qo'yiladi. Navbatdagi garovga oluvchining talabi bu mol-mulkning qiymatidan avvalgi garovga oluvchilarning talablaridan keyin qanoatlantiriladi. Garovga qo'yuvchi garovga oluvchilarning har biriga mazkur mol-mulkning barcha mavjud garovlari to'g'risida, shuningdek bu garovlar bilan ta'minlangan majburiyatlarning miqdori haqida ma'lum qilishi shart va ushbu majburiyatni bajarmaslik tufayli garovga oluvchilarga yetkazilgan zarar uchun javob beradi¹⁴.

Garovga oluvchining garov to'g'risidagi shartnoma bo'yicha o'z huquqlaridan boshqa shaxs foydasiga voz kechishi, agar garov bilan ta'minlangan asosiy majburiyat bo'yicha qarzdordan talab qilish huquqidan ham o'sha shaxs foydasiga voz kechilgan bo'lsa, haqiqiy bo'ladi.

Garov bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha qarz boshqa shaxsga o'tkazilishi bilan, agar garovga qo'yuvchi kreditorga yangi qarzdor uchun qonun hujjatlariga muvofiq javob berishga rozilik bergan bo'lmasa, garov bekor bo'ladi.

1.3. Xorijiy banklarda mol-mulk garovining amaliyoti va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyati

¹⁴ O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi qonuni. 1992-yil 9-dekabr, 15-modda.

O'zbekistonda kredit ta'minotining ikkilamchi shakllarini rivojlantirish istiqbollari haqida gapirganda ularning har birida mavjud bo'lgan risklarni baholashga ham ahamiyat berish lozim.

Bu borada Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasi maqsadga muvofiqdir. Ushbu mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq muomalalar ularda anchagina taraqqiy topgan, qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori to'laqonli shakllangan. Lekin, afsuski, bizning yurtimizda qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori hali to'laligicha shakllanib ulgurmagan, buning ustiga likvidligi yuqori bo'lgan aksiya va obligatsiyalarni topish ham qiyin, bo'lsa ham uni hech kim savdoga qo'ymaydi. Shu sabab, bizda qimmatli qog'ozlar garovi to'grisida biror fikr bildirish juda qiyin.

Lekin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PQ-4947-sonli qarorida buning ahamiyatiga alohida to'xtalgan holda qimmatli qog'ozlar bilan muomalalarni rivojlantirish ko'zda tutilgan. Bunda Moliya vazirligi, Markaziy bank, Iqtisodiyot vazirligi, Davlat raqobat qo'mitasi, Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti jalb etilgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini tuzish mo'ljallangan. Loyihada quyidagilar nazarda tutilgan¹⁵:

- mustahkam moliyaviy institutlariga (banklar, sug'urta kompaniyalari, yirik davlat kompaniyalari, aksiyadorlik jamiyatlari) qimmatli qog'ozlar (obligatsiyalar, veksellar va boshqalar) chiqarishga ruxsat berish;

- qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli organning moliya bozorining zamonaviy vositalarini joriy qilishdagi rolini kuchaytirish, ya'ni mazkur organni nazorat organi sifatida emas, balki qimmatli

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PQ-4947-sonli qarori.


qog`ozlar bozori ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi organ sifatida faoliyati samaradorligini oshirish;

- alohida milliy korxonalar aksiyalarining xorijiy nufuzli fond birjalarida dastlabki tarzda joylashtirilishiga erishish.

Yuqoridagi tilga olingan loyihaning amalga oshirilishi qimmatli qog`ozlar bilan muomalalarni ancha joyga tushirgan holda, garov munosabatlarida qimmatli qog`ozlardan ta`minot sifatida foydalanish ko`lamini kengaytirishga imkon yaratadi.

Bu borada Rossiyada kreditlarni qaytarilishining ta`minoti bo`yicha quyidagi qimmatli qog`ozlar ro`yxati keltirilgan¹⁶:


- kotirovka qilinadigan qimmatli qog`ozlar;
- Rossiya bank obligatsiyalari;
- Rossiya Moliya vazirligi chiqargan qimmatli qog`ozlar va veksellar;
- Kredit tashkilotlarining xususiy qarz qimmatli qog`ozlari;
- Barqaror moliyaviy holatga ega yuridik shaxslarning qimmatli qog`ozlari.



¹⁶ Лаврушин О.И. Банковское дело. Учебное пособие. 3-е изд. Перераб и доп/ М. КНОРУС, 2009, 250-с.

3-rasm. Yevro hudud mamlakatlari banklari tomonidan qabul qilingan jami ta`minot miqdori, (mlrd. yevro)¹⁷

Yevro hudud mamlakatlari miqyosida kredit ta`minotiga oid ma`lumotlarni ko`rib o`tadigan bo`lsak, so`nggi uch yilda pasayishni kuzatish mumkin. Bunda 2014-yilda Yevro hudud mamlakatlari tijorat banklari tomonidan qabul qilingan ta`minot miqdori jami 2.209,7 mlrd. yevroni tashkil etgan, 2015-yilda esa bu ko`rsatkich 1.848,3 mlrd. yevro bo`lgan. 2017-yilga kelib esa Yevro hudud mamlakatlari banklari jami 1.657,6 mlrd. yevro miqdorida ta`minot vositalarini qabul qilib olishgan.




4-rasm. Yevro hudud mamlakatlari banklari tomonidan qabul qilingan ta`minot turlari strukturasi, (mlrd. yevro)¹⁸

Diagramma ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki, Yevro hudud mamlakatlari banklari tomonidan eng ko`p quyidagi ta`minot vositalari qabul qilingan: bank obligatsiyalari – 441,0 mlrd. yevro, kredit talablari – 383,3 mlrd. yevro, aktivlar bilan ta`minlangan qimmatli qog'ozlari – 336,0 mlrd. yevro.

¹⁷ www.ecb.europa.eu – Yevropa Maraziy Bank rasmiy veb sayti ma`lumotlari.

¹⁸ www.ecb.europa.eu – Yevropa Maraziy Bank rasmiy veb sayti ma`lumotlari.


Hukumat qimmatli qogʻozlari eng ishonchli aktivlardan hisoblanadi, chunki hukumatdan oʻz pulingizni qaytarib olish imkoniyatingiz anchagina yuqori. Koʻrishimiz mumkinki, 295,5 mlrd. yevro miqdoridagi taʼminot aynan hukumat qimmatli qogʻozlariga tegishlidir. Mahalliy hokimiyat organlarining qimmatli qogʻozlari esa 74,9 mlrd. yevroni tashkil etmoqda.



5-rasm. Yevro hudud mamlakatlari banklari tomonidan garov predmeti sifatida qabul qilingan mol-mulk miqdori, (mlrd. yevro)¹⁹

Yevro hudud mamlakatlari banklari tomonidan aynan mol-mulk garovi sifatida qabul qilingan taʼminot vositalari soʻnggi uch yil mobaynida pasayishni koʻrsatib turgan holda, 2017-yilga kelib ularning qiymati 81,4 mlrd. yevroni tashkil etdi.


¹⁹ www.ecb.europa.eu – Yevropa Maraziy Bank rasmiy veb sayti maʼlumotlari.



6-rasm. Yevro hudud mamlakatlari banklari tomonidan garov predmeti sifatida qabul qilingan mol-mulklarning jami ta`minot tarkibidagi ulushi, (foizda)²⁰

Yuqoridagi diagramma ma`lumotlaridan ko`rish mumkinki, bir necha yillar davomida Yevro hudud mamlakatlari tijorat banklari tomonidan ta`minot sifatida mol-mulklardan nisbatan kam miqdorda qabul qilingan. Ushbu ko`rsatkich 2005-yilda bor yo`g`i 2,31 foizni tashkil etgan. Bu ko`rsatkich 2006-yilda biroz ko`tarilgan holda, 2009-yilgacha faqat pasaygan. Keyingi yillarda esa asta-sekin ko`tarila borgan. Lekin, so`nggi ikki yilda yana pasayishni ko`rsatmoqda, 2016-yilda 6,13%, 2017-yilda 4,91% bo`lgan. Buning sababi, yuqorida aytigandek, ta`minot vositalarining ko`pligi.

²⁰ www.ecb.europa.eu – Yevropa Maraziy Bank rasmiy veb sayti ma`lumotlari.



7-rasm. Yevro hudud mamlakatlari banklari tomonidan garov predmeti sifatida qabul qilingan qimmatli qog'ozlarning jami taminot tarkibidagi ulushi, (foizda)²¹

Ushbu diagrammada ko'rish mumkinki, Yevro hudud mamlakatlari tijorat banklarida garov ta'minoti sifatida qabul qilingan qimmatli qog'ozlarning ulushi hech vaqt 70 foizdan pasaymagan. 2005-2007-yillarda bu ko'rsatkich 90 foizdan yuqorini ko'rsatgan bo'lsa, 2008-2011-yillarda 80-90 foiz atrofida bo'lgan, keyigi yillarda esa 70 foiz atrofida ko'rsatkichlarni kuzatish mumkin. 2017-yilga kelib qimmatli qog'ozlarning jami garov ta'minoti tarkibidagi ulushi 71,75% bo'ldi.

Kredit shartnomasi tuzilganda ham e'tibor berishimiz mumkinki, uning bitta bandi kredit ta'minotiga ba'gishlangan bo'ladi. Shu sabab, kredit shartnomasining tuzilishi ham e'tiborga molik jarayon. Kredit shartnomasi kredit munosabatlarini amalga oshirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Garov predmeti, uning xususiyatlari, qiymati hamda boshqa bir qator muhim shartlar kredit shartnomasida ham keltirilib o'tilishi lozim.

Turli davlatlarda mijozlar bilan tuziladigan kredit shartnomalarining umumiy jihati shundaki, bunda huquqiy madaniyatning yuqori darajasini, kredit bitimlarining qo'shimcha shartlarini kiritilishini, turli kredit instrumentlaridan

²¹ www.ecb.europa.eu – Yevropa Maraziy Bank rasmiy veb sayti ma'lumotlari.

foydalangan holda kredit shartnomalarini shakllantirilishini ko'rish mumkin. Yaponiyada bank yuristi bilan advokatlik idoralari o'rtasida o'zaro aloqalar o'rnatilgan bo'lib, nisbatan murakkab yuridik savollarni va sud jarayonida kredit shartnomalari bilan yuzaga kelgan muammolarni hal qilish borasida maslahatlashish imkoniyati mavjud. Germaniyada esa bir tizimdagi banklar uchun umumiy kredit shartlari amal qiladi. Qonunlar orqali kredit operatsiyalarining huquqiy asoslari yaratilgan²².

Ba'zi chet el mamlakatlarida yer xususiy mulk sifatida oldi-sotdi qilinishi mumkin. Shu asosda, ma'lum majburiyatlar, misol uchun kredit bilan bog'liq majburiyatlar yerni garovga qo'ygan holda ta'minlanishi mumkin. Lekin, bizning yurtimizda biroz boshqacharoq.

O'zbekistonda yer davlat mulkidir va u foydalanuvchilar: fermer, shirkat xo'jaliklari va boshqalarga ijaraga, dehqon xo'jaliklariga esa umirbod meros qilib qoldiriladigan tarzda foydalanish uchun beriladi. Qonun fermer xo'jaliklariga yer uchastkasini ijaraga olish huquqini bank kreditini qaytarilish ta'minoti sifatida garovga qo'yishiga ruxsat bergan. O'zga mamlakatlarda, ayniqsa, g'arb mamlakatlarida, yerga shaxsiy mulk sifatida qaraladi. Yerni sotish, sotib olish va garovga qo'yish juda bemalol. Lekin, bizda ham, yer davlatga tegishli bo'lsada, ma'lum huquqlar asosida undan garov munosabatlarida foydalanish imkoni mavjud.

Hozirgida ushbu huquqni amalga oshirish mexanizmi 2004-yil 18-aprelda 1336-raqam bilan davlat ro'yxatiga olingan "Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qiymatini baholash tartibi to'g'risida"gi nizom hamda 2004-yil 30-aprelda 1345-raqam bilan davlat ro'yxatiga olingan "Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi to'g'risida" nizom amalga kiritilish bilan yaratildi. Ammo yerni ijaraga olish huquqini garovga olib kredit berishni ipoteka krediti deb qarash noto'g'ri bo'lar edi.

²² Лаврушин О.И. Банковское дело. Учебное пособие. 3-э изд. Перераб и доп/ М. КНОРУС, 2009, 245-с.

Ushbu munosabatlarni ipoteka munosabatlari deb qarash uchun yetarli asos mavjud emas. Ipoteka kreditida kredit qaytarilmagan taqdirda ipoteka ob'ekti: ko'chmas mulk yoki yer bank ixtiyoriga o'tadi va uni bank sotganidan keyin uning egasi, mulkdori o'zgaradi.

Yer uchastkasidan foydalanish huquqini kreditni qaytarish ta'minoti sifatida garovga qo'yilganda va kredit qaytarilmaganda yer uchastkasini ijaraga olish huquqi boshqa shaxsga sotiladi va natijada yer uchastkasini ijaraga olgan shaxsgina o'zgarib, yerning mulkdori o'zgarmasdan qoladi. Ijara muddati tugagandan keyin ushbu yer uchastkasi qaytadan boshqa shaxsga ijaraga berilishi yoki boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin. Davlat ipoteka kreditini rivojlantirishdan bevosita manfaatdordir.

Hozirgi zamon samarali kredit munosabatlarini shakllantirish va uni rivojlantirish butun dunyoda banklarning mamlakat iqtisodiy hayotidagi o'rni va roli haqidagi shakllangan tasavvurga javob beradigan, yanada rivojlangan va yanada mustahkam bank tizimini shakllanishiga yordam beradi. Shu sababli, kredit bilan bog'liq barcha huquqiy me'yoriy qonunlarni takomillashtirish zarur bo'lmoqda.

Respublikamizdagi kreditlash amaliyotlari bilan bog'liq dolzarb masalalardan biri bu tijorat banklarining yetarli moliyaviy resurslariga ega emasligidadir. Hozirgi kunda respublikamizdagi tijorat banklari kreditlarni asosan o'z mablag'lari hisobidan taqdim etmoqdalar. Ammo, tijorat banklari amaliyotida qisqa muddatli mablag'lar ko'p bo'lganligi holda uzoq muddatli mablag'lar deyarli kam. Kreditlarning uzoq muddatga berilishini inobatga olsak, tijorat banklari aynan uzoq muddatli resurslarga ehtiyoj sezadi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari resurslarining yetarliligini baholash maqsadida ularning talab qilib olinadigan depozitlari miqdorini jami depozitlar hajmidagi salmog'i aniqlanadi. Agar ushbu ko'rsatkich 30 foizdan yuqori bo'lsa, unda tijorat bankining resurs bazasi yetarli emas, deb hisoblanadi.

Hozirgi kunda asosiy kamchiliklardan biri sifatida kredit bozori resurs bazasining yetarli shakllanmaganligini ko'rsatish mumkin. Qimmatli qog'ozlar mexanizmining rivojlanishi nafaqat kredit bozorining rivojlanishi, balki hozirgi kunda mamlakatda sust rivojlanayotgan fond bozorinining faollashuviga ham turtki bo'ladi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar fond bozorinining 50 foizini aynan ipoteka qimmatli qog'ozlari tashkil etadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek respublikamizdagi tijorat banklari ipoteka kreditlarini asosan o'z mablag'lari hisobidan taqdim etmoqdalar. Bu esa banklarda uzoq muddatli moliyaviy resurslarni taqchilligi muammosini keltirib chiqaradi. Rivojlangan xorijiy davlatlar va Rossiya kabi bir qator o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki ipoteka kreditlari ta'minoti uchun yetarli darajada moliyaviy resurslarni jalb etish mexanizmini yaratmay turib mamlakatda ipoteka munosabatlarini rivojlantirish mumkin emas. Moliyaviy resurslarning yetishmasligi muammosi talabini qondirish uchun ipoteka qimmatli qog'ozlarining chiqarilishini taqazo etadi.

Masalan, mazkur mamlakatlarda tijorat banklari moliyaviy resurslarni ipoteka kreditiga garov qilib qo'yilgan mulk asosida qimmatli qog'ozlarni (garov qog'ozlari) bozorga chiqarib, bozordagi mablag'larni jalb yetishga erishadilar. Ipoteka qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi uzoq muddatli resurslarga bo'lgan ehtiyojni qondiradi va ipoteka krediti berilishini belgilaydi.

Uy-joy taklifi va talabi o'rtasidagi barqarorlikni ta'minlash muhim ahamiyatga egadir. Respublikamizda uy-joy ob'ektlari qiymatining keskin o'sishiga yo'l qo'ymaslikning maqbul yo'llaridan biri uy-joy taklifini oshirish hisoblanadi. Bir qator xorijiy davlatlar hamda Rossiya tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, uy taklifining sezilarli darajada oshmasligi, bozorda uy-joy narxini keskin ravishda oshishiga olib keladi. Bu esa, aholining to'lovga qobil talabining sezilarli darajada pasayishiga va ularga berilgan ipoteka kreditlarining o'z vaqtida qaytarmasligiga olib keladi.

Respublikamizda uy-joy qurilish hajmining sezilarli darajada qisqarishi, aholining pullik daromadlari o'sishi hamda urbanizatsiya jarayonlari uy-joy bahosining keskin ravishda o'sishiga olib keldi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda respublikamiz tijorat banklari aktivlarining tarkibida salmoqiga ko'ra ikkinchi o'rinni kassali aktivlar egallaydi, uchinchi o'rinni esa, asosiy vositalarga qilingan qo'yilmalar egallaydi. Holbuki, asosiy vositalar daromad keltirmaydigan aktiv hisoblanadi, kassali aktivlarning daromadlilik darajasi esa, juda pastdir. Rivojlangan industrial mamlakatlarning bank amaliyotida esa, tijorat banklari aktivlarining tarkibida salmoqiga ko'ra birinchi o'rinni kreditlar, ikkinchi o'rinni qimmatli qoqozlar shaklidagi aktivlar, uchinchi o'rinni esa, kassali aktivlar egallaydi. qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar daromadlilik darajasiga ko'ra kreditlardan keyingi aktiv hisoblanadi. Bundan tashqari, ular banklarning likvidlilikini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan ham, ko'plab xorijiy banklarda aktivlarning daromadlilik darajasini yuqori ekanligi kuzatiladi

2008-yilning noyabr oyidan boshlab respublikamiz tijorat banklarining milliy va xorijiy valyutalardagi barcha depozitlaridan 15 foiz miqdorida majburiy zaxira ajratmasi olish joriy qilindi. Bu nisbatan yuqori stavka bo'lib tijorat banklarining kreditlash imkoniyatiga va likvidlilikiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Yaponiyada majburiy zaxira stavkasi 0,1 foizdan 0,125 foizgacha qilib belgilangan. Bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyada -0,45 foizni, AQShda 3-12 foizni, Yevrohududga kiruvchi Yevropa mamlakatlarida esa, 2 foizni tashkil qiladi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida majburiy zaxira stavkalari depozitlarning muddati va so'mmasiga bog'liq ravishda tabaqalashtirilgan. Depozitning so'mmasi qanchalik katta bo'lib muddati qanchalik qisqa bo'lsa, majburiy zaxira stavkasi shunchalik yuqori belgilanadi. Natijada muddatli va jamqarma depozitlariga nisbatan past stavkalar qo'llaniladi.

Xorijiy mamlakatlarda garov munosabatlarining shu kabi xususiyatlarini ko`rish mumkin.

1-bob bo'yicha xulosa

Bitiruv malakaviy ishining dastlabki qismi bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, ko`rishmiz mumkinki, avvalo, kredit operatsiyalari nafaqat tijorat banklari uchun, balki kredit oluvchilar uchun ham foyda keltiruvchi resurs manbayi hisoblanadi. Tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotga kreditdan foydalanuvchilar o'z navbatida, o'z tadbirkorlik faoliyatlarini yo'lga qo'yib olishmoqda, rivojlantirishmoqda, hamda jismoniy shaxslarning iste'mol tovarlari hamda uy-joylarga bo'lgan ehtiyojlari qondirilmoqda.

Shu sababdan, kredit operatsiyalarini hamda kreditlash jarayonining ajralmas qismi hisoblangan garov munosabatlarini chuqurroq anglab olish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu bobda, aynan, kredit va kredit munosabatlarining mohiyati, kredit berish shakllari, tijorat banklari va boshqa moliya institutlari tomonidan taqdim etilayotgan kreditlarning yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatida tutgan o'rni haqida alohida to'xtalib o'tilgan.

Ushbu bobning tarkibiy qismlarida kreditlarning ta'minlanishi, garov munosabatlari va mol-mulk garovining mohiyati hamda ularning huquqiy asoslari haqida batafsil fikr bildirilgan. Bundan, tashqari xorijiy mamlakatlarning ba'zi tajribalaridan ham ayrim fikrlar keltirilgan.

2-BOB. O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING KREDIT MUNOSABATLARI VA UNDA GAROV MULKLARI BILAN ISHLASH TARTIBINING AMALIYOTI

2.1. Tijorat banklari kreditlash amaliyotida garov mulklari bilan ishlash tartibi

Bugungi kunda tijorat banklarining oldiga qo'yilgan eng asosiy vazifa respublikamiz taraqqiyotini belgilovchi real sektorni yetarlicha moliyaviy resurslar va xizmatlar bilan ta'minlashdir. Shu sababli, kreditlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Lekin shuni unutmaslik kerakki, kreditlash xizmati ko'rsatilishining asosiy tamoyili va shartlaridan biri ta'minlanganlikdir. Kreditlash xizmati bo'yicha qarzдорliklarni qaytarishning asosiy birlamchi manbayi bu - mahsulot sotishdan, ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatishdan tushgan tushum hisoblanadi.

Kreditlash xizmatlari ko'rsatilishida ular bo'yicha qaytmaslik xatarini kamaytirish maqsadida, ikkilamchi ta'minot tarzidagi qaytarish manbasi mavjud bo'lishi lozim. Kreditlash xizmati ko'rsatilishi to'g'risidagi qaror birinchi navbatda ikkilamchi ta'minotning ya'ni garov, kafolat yoki kafillikning jozibadorligiga asoslanmasligi kerak. Agar kreditlanayotgan bitim yuqori xatar, qarzдорning ishonchsizligi bilan bog'liq bo'lsa, faqatgina yaxshi ta'minot mavjudligi asosida kreditlash xizmati ko'rsatilishi tavsiya etilmaydi.

Quyidagilar tijorat banklari amaliyotida ta'minot sifatida qabul qilinishi mumkin:

- mol-mulk, pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar garovi;
- to'lov layoqati va moliyaviy ishonchliligi tekshirilgan, moliyaviy barqaror va doimiy pul mablag'lari oqimi mavjud, yuqori kredit layoqatiga ega uchinchi shaxslarning kafilliklari;
- boshqa tijorat banklari, kredit va sug'urta tashkilotlari kafolatlari;
- nufuzli sug'urta kompaniyalarining sug'urta polislari;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan boshqa ta'minot turlari.

Kreditlash xizmati bo'yicha ta'minot asosiy qarz va hisoblangan foizlar bo'yicha barcha summani qoplashga yetarli bo'lishi, ya'ni ta'minotning miqdori kredit summasidan kamida 125 foizni tashkil etishi lozim. Kredit ta'minoti qabul qilinishidan va tegishli shartnomalar rasmiylashtirilishidan avval, albatta, garovga

qo'yuvchi, kafolat beruvchi, kafil korxonalar va ularning boshqaruv organlarida mulkni garovga qo'yish, kafolat va kafilliklar berish bu haqda tegishli shartnomalarni imzolashga vakolati mavjudligi amaldagi qonunchilik va ularning ta'sis hujjatlari asosida tekshirilishi lozim.

Ta'minot rasmiylashtirishga doir barcha harakatlar (shartnoma tuzish, garovga qo'yilayotgan mulkni sug'urtalash, notarial tasdiqlash, ipoteka va boshqa shartnomalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va boshqa ishlar) bank tomonidan kredit mablag'lari berilguncha amalga oshirishi kerak. Albatta, bank ushbu munosabatlarda qatnashayotgan boshqa subyektlar haqida ma'lumotlarni, kredit axborotini to'playdi.

Kredit axboroti — kredit bitimining holati, berilgan ta'minot bo'yicha (garov, kafolat, kafillik, kreditni to'lamaslik xavfini sug'urtalash va ta'minotning boshqa turlari bo'yicha) majburiyatlarning bajarilishi haqidagi ma'lumotlar, shuningdek kredit axboroti subyektining kredit qobiliyatini, moliyaviy holatini, to'lov qobiliyatini, to'lov intizomini va o'zga sifatlarini aniqlashga ko'maklashuvchi boshqa axborot²³.

Quyidagilar garov narsasi bo'la olmaydi (garovga olinmaydi)²⁴:

- muomaladan chiqarilgan mol-mulklar, kreditorning shaxsi bilan uzviy bog'liq bo'lgan talablar, xususan hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablar, alimentlar to'g'risidagi talablar hamda boshqa shaxsga berilishi qonun bilan man etilgan boshqa talablar;

- tarixiy, madaniy yoki o'zgacha qimmatbaholigi tufayli yoxud davlat xavfsizligi nuqtai nazaridan garov qo'llanilishi mumkin bo'lmagan va ro'yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yiladigan ob'ektlar;

- “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida”gi qonunda ko'rsatilgan davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiylashtirilishi mumkin

²³ O'zbekiston Respublikasining “Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida”gi qonuni. 2011-yil 4-oktyabr, 4-modda.

²⁴ O'zbekiston Respublikasining “Garov to'g'risida”gi qonuni. 1992-yil 9-dekabr, 5-modda.

bo'lmagan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiylashtiriladigan ob'ektlar.

Bank tizimida quyidagi mulklarni garovga olish tavsiya qilinmaydi:

- egalik huquqi lozim darajada rasmiylashtirilmagan bino va inshootlar;
- korxona va tashkilotlar ichida joylashgan va alohida chiqish yo'liga ega bo'lmagan bino hamda inshootlar;
- qurilish norma va qoidalarga rioya qilinmasdan qurilgan binolar jumladan, qisman yoki to'la xom-g'isht, paxsa, sinch kabi qurilish mahsulotlari ishlatib qurilgan bino va inshootlar;
- ta'mirlash va saqlash xarajatlari katta bo'lgan yoki 60 foizdan ortiq eskirish qiymatiga ega yoki avariya holatidagi bino va inshootlar;
- kommunikatsiya va infrastruktura tizimi rivojlanmagan hududlarida joylashgan binolar va inshootlar;
- tegishli kadastro hujjatlari mavjud bo'lmagan, qurilishi yakunlanmagan bino va inshootlar (qonunchilik bilan ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno);
- kelgusida buzilishi yoki qayta qurilishi kutilayotgan bino va inshootlar;
- juda tor doirada foydalanishga mo'ljallangan mulklar (mini-sex, uskunalar, stanoklar va boshqalar);
- jismoniy va ma'naviy eskirgan, to'liq yoki qisman nosoz holatdagi mashina, jihoz va uskunalar;
- o'g'irlash, o'zlashtirish, talon-taroj qilish yoki boshqa shaklda begonalashtirilishi oqibatida sifat xususiyatlariga ko'ra tanib olish qiyin bo'lgan mulklar (qurilish materiallari, keng iste'mol mollari, qismlarga bo'linadigan boshqa mulklar);
- tez buziladigan tovarlar va oziq-ovqat mahsulotlari, talab kam bo'lgan tovar-moddiy boyliklar va ko'p miqdordagi bir xil turdagi tovarlar;
- ma'lum muddat saqlashga mo'ljallangan tovarlar va ko'rsatilgan muddatda iste'mol xususiyatlari yomonlashadigan tovarlar;

- yagona yer uchastkasida joylashgan va bir necha mulkdorlarga tegishli ob'ektlar;

- suv va havo, temir yo'l transporti vositalari.

Garovga taqdim etilayotgan mol-mulk quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- boshqa garovdan va majburiyatlardan ozod bo'lishi;

- yuqori darajada likvid bo'lishi, ya'ni tezda sotish orqali pul mablag'iga aylantirish imkoniyati mavjudligi;

- garovga qo'yuvchining garov narsasini tasarruf etish va garovga qo'yish to'liq huquqi va vakolatining mavjudligi;

- kredit (lizing, kafolat) va hisoblangan foizlarni to'liq qoplashi;

- uzoq muddat saqlash xususiyati mavjudligi (mulkning saqlanish muddati kredit muddatidan kam bo'lmasligi kerak);

- bank xodimlari tomonidan nazorat qilib borilishi imkoniyati mavjudligi.

Garovga taqdim etilayotgan ko'char va ko'chmas mulklar quyidagi ma'lum bir shartlar asosida garovga qabul qilinishi mumkin.

Avtotransport vositalari va harakatlanadigan mulk garovi taqdim etilayotganda - garov qiymati (yengil va yuk avtotransport vositalari, qishloq xo'jalik texnikalari va boshqalar) kredit summasidan kamida 125 foizni tashkil etishi lozim. Avtotransport vositalarini garovga olishda ularning yillik eskirish darajasini hisobga olish zarur. Garovga olingan avtotransport vositalari boshqa sug'urta holatlari bilan birga "Yo'l transport hodisasi" holatidan ham majburiy tartibda sug'urtalanishi kerak. Bunda Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 7-martdagi 38-sonli qaroriga muvofiq avtomobil vositalarini ro'yxatdan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 6-yanvardagi 8-sonli qaroriga muvofiq traktorlar, o'ziyurar shassi va traktor tirkamlarini ro'yxatdan o'tkazish, belgilangan tartibda yagona nomer belgilari va texpasportlar berish "Davtexnazorat" ning tuman va shahar inspeksiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Shunga ko'ra, bu turdagi mulklarni garovga olish shartnomalari ushbu davlat organlaridan davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart. Zarur hollarda, garov shartnomasi tuzishdan oldin garov narsasiga oid ma'lumotlarni qayd qilingan davlat organlaridan yozma shaklda olish mumkin.

Uskunalar garovi taqdim etilayotganda uskunaning har bir birligiga texnik pasportning asl nusxasi mavjud bo'lishi lozim. Dastgoh, asbob-uskuna va qurilma garovi taqdim etilayotganda ularning holati, ishlatilish muddati va eskirish hajmi hisobga olinishi lozim.

Korxona aylanmasidagi (muomaladagi) tovarlar garovi - faqatgina qisqa muddatli kreditlar bo'yicha, yuqori likvid tovarlar (uzoq muddat saqlanishi mumkin bo'lgan) qabul qilinishi mumkin. Bunda korxona omboridagi tovarlar qoldig'i kreditni ta'minlash uchun yetarli miqdordan kamaymasligi lozim. Mazkur shartga rioya etmaslik holatlari kreditning qaytarilmagan summasini muddatidan oldin undirib olish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning mulki bo'lgan bino, inshootlar, turar uy-joy, savdo va xizmat ko'rsatish ob'ektlari va boshqa ko'chmas mulklar, ular joylashgan yer uchastkalari (huquqlari) bilan birgalikda garovi taqdim etilayotganda, kreditning maksimal muddati ob'yekt baholangan foydali (qolgan) foydalanish (hayoti) muddatidan kam bo'lishi zarur.

Butun korxona garovi taqdim etilayotganda, uning faoliyati uchun mo'ljallangan barcha turdagi mulklar, jumladan, muhandislik kommunikatsiyalari, yer uchastkalari, bino, inshoot, uskuna, inventar, xom-ashyo, mahsulot, talab huquqi va boshqalarni garov qamrab olishi lozim.

Agar yaxlit majmuaga tegishli mulkning bir qismi garov sifatida taqdim etilayotganda, ushbu mulkning sotish imoniyati mavjudligiga, garovga qo'yuvchiga tegishli bo'lgan bitta hududda joylashgan bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan har xil mol-mulklar (bino va inshootlar, asbob-uskunalar va boshqalar) garovga olingan taqdirda, mazkur mol-mulklar yaxlit holda mulkiy majmua sifatida garovga olinishiga e'tibor qaratish kerak.

Bino inshoot ipotekasida ular joylashgan yer uchastkasini ham birgalikda garovga olish, ipoteka shartnomasida aniq yer uchastkasi va uning miqdorini ko'rsatilishi, faqat ko'chmas mulk egallab turgan yer uchastkasi va uchastkaning garovga qo'yilayotgan obyekt ishlashini ta'minlaydigan qismigina emas, balki kadastr xizmati tomonidan berilgan guvohnomaga asosan garovga qo'yuvchiga tegishli bo'lgan yer uchastkasini to'laligicha garovga olish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, mol-mulkni garovga olish, garov shartnomasini rasmiylashtirishning asosiy bosqichlaridan biri - bu garov narsasini baholashdir.

Bank mas'ul mutaxassisining asosiy vazifasi garov mulkining qiymatini uning likvidligiga ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarni hisobga olgan holda aniqlashdan iborat.

Kredit ta'minotiga doir hujjatlarni rasmiylashtiruvchi bank mas'ul mutaxassisi mazkur mulk garovdan, sotishlikdan, boshqa majburiyatlardan xoli ekanligiga va garovga olinishi mumkinligiga ishonch hosil qilishi shart. Garovning turiga va kredit olayotgan shaxslarga bog'liq ravishda hujjatlar rasmiylashtiriladi.

Bank mas'ul mutaxassisi obyekt joylashgan manzilga chiqib mol-mulkka va mol-mulkning egalik huquqini beruvchi hujjatlarni mos ekanligiga ishonch hosil qilishi, mulkni ko'zdan kechirishi, uning holatini va qiymatini belgilashga ta'sir etishi mumkin bo'lgan boshqa omillarni baholashi, ko'zdan kechirish varaqasini to'ldirishi shart. Shundan so'ng quyidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi:

- garov mulkining huquqiy ahvoli to'g'risidagi (titul, mulkiy huquqlari va servitutlari);
- ko'chmas mulk tarkibiga kiruvchi binolar, inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalari to'g'risidagi;
- shahar yoki tumanning iqtisodiy hududlari xaritasi bo'yicha baholanayotgan obyektning joylashgan yeri va obyektning qiymatiga ta'sir ko'rsatuvchi bevosita uning yon atrofi to'g'risidagi;
- ishlab chiqarilgan, qurilgan yili, eskirish darjasi va texnik holati to'g'risidagi ma'lumotlar.

Garov predmetining bozor qiymati mustaqil baholovchi tashkilot tomonidan belgilanadi. Bank mas'ul mutaxassisi xolis baholash tashkilotining hisobotini amaldagi qonunchilik talablariga hamda O'zbekiston Respublikasida baholashning mavjud standartlarga muvofiqligini tekshirib chiqishi darkor.

Baholash faoliyati – baholovchi tashkilotning baholash obyekti qiymatini aniqlashga qaratilgan faoliyatidir²⁵.

Mulkning garov bahosi baholash hisob-kitoblarini, mintaqaviy birjalar ma'lumotlarini va ob'jektning likvidligini kompleks tahlil qilish asosida bozor narxiga nisbatan foizlarda aniqlanadi. Garovga taklif etilgan mulk yuqori darajada likvidlikka ega bo'lgan ayrim hollarda, istisno tariqasida diskont miqdori boshqaruvning qarori asosida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Garovga qo'yilgan mulk bo'yicha bankning mas'ul mutaxassisi garovga qo'yishga taklif qilinayotgan mulk amaldagi qonunchilikka mos kelishi yuzasidan uning bozor qiymatini aniqlanishi to'g'risidagi mustaqil baholovchi tashkilotining hisobotini tekshirib chiqishi kerak.

Baholash to'g'risidagi hisobotda quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak²⁶:

- hisobot tuzilgan sana va tartib (ro'yxatga olish) raqami;
- baholashni o'tkazishi uchun asos;
- baholovchi tashkilotining manzili, unga berilgan baholash faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasining va baholash faoliyatini amalga oshirishda fuqarolik mas'uliyatini sug'urtalash polisining nusxalari;
- yuridik shaxs egaligidagi baholash ob'jektining uning qiymatini aniqlash sanasidagiga aynan identifikatsiya qilish imkonini beradigan tavsifi, shuningdek yuridik shaxsning rekvizitlari;
- baholash standartlari;

²⁵ O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati to'g'risida"gi qonuni. 1999-yil 19-avgust, 3-modda.

²⁶ O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati to'g'risida"gi qonuni. 1999-yil 19-avgust, 17-modda.

- baholash ob'yektini baholashdan o'tkazish izchilligi va yakuniy qiymati, shuningdek olingan natijaning qo'llanish chegaralari;
- baholash ob'yektining qiymati aniqlangan sana (baholash sanasi);
- baholovchi tashkilot foydalanadigan hamda baholash ob'yektining miqdor va sifat xususiyatlarini belgilaydigan hujjatlar ro'yxati.

Baholash to'g'risidagi hisobotda baholash ob'yekti qiymatini hisoblash chiqish usulini asoslash uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar ham ko'rsatilishi mumkin. Agar baholash ob'yektini baholashdan o'tkazishda bozor qiymatidan farqlanuvchi qiymat aniqlangan bo'lsa, baholash to'g'risidagi hisobotda bahoni aniqlash mezonlari va baholash ob'yektining bozor qiymatini aniqlash imkoniyatidan voz kechish sabablari ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Baholash to'g'risidagi hisobotning har bir beti baholashni baholashni o'tkazgan baholovchi (baholovchilar) tomonidan imzolanadi, baholovchi tashkilot rahbari tomonidan va ushbu tashkilot muhri bilan tasdiqlanadi. Baholash to'g'risidagi hisobotning mazmuni mazkur hisobotdan foydalanuvchilarni chalg'itmasligi hamda ikki xil talqinga yo'l qo'ymasligi kerak. Baholash tashkilotida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab 6 oydan ortiq muddatga ega mulklarning bozor qiymati to'g'risidagi hisobotlar, qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Zarur bo'lgan holda, baholash to'g'risidagi hisobotning ishonchliligini tekshirish uchun mazkur hisobot qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa baholovchi tashkilot tomonidan shartnoma asosida ekspertizadan o'tkazilishi mumkin.

Filial boshqaruvchisi va garov mulki bo'yicha nutazassis garov ob'yektining tanlanishi, likvidligi va garov bo'yicha hujjatlarning to'g'rira rasmiylashtirilishi uchun shaxsan javobgardir.

Barcha hollarda kreditlash xizmati ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qilinguncha, garovga qo'yilayotgan mulkni mulk egasi ishtirokida bevosita joyiga chiqib ko'zdan kechirgan va o'rgangan holda baholash talab etiladi. Garov mulkini ahvolini o'rganish jarayonida bevosita joyiga chiqib, garov narsasini

fotosuratlarini, kerak bo'lsa, videotasvirlarini olish, Kredit komissiyasi tomonidan Kreditlash xizmati ko'rsatish masalasi ko'rib chiqilayotganda, garov narsasi fotosuratlari, videotasvirlarining taqdimotini o'tkazish lozim bo'ladi.

Baholash to'g'risidagi xulosa qonun talablariga javob bermagan yoki mulkning baholovchi tomonidan belgilangan qiymatining to'g'riligiga shubha tug'ilgan hollarda, bunday xulosani qabul qilmaslik va mijozdan mulkni yetarli tajribaga ega bo'lgan, nufuzli baholash tashkilotida baholatishni talab qilib, baholashda Bankning malakali mutaxassisi ishtiroki va ta'sirini ta'minlash lozim bo'ladi. Bunda, zarur bo'lgan holda, baholash to'g'risidagi hisobotning ishonchliligini tekshirish uchun belgilangan tartibda boshqa baholovchi tashkilot tomonidan shartnoma asosida ekspertizadan o'tkazilishi mumkin.

Garov mulki baholovchi tashkilot tomonidan baholangandan so'ng, garov mulkning qiymatini garovga qo'yuvchi/qarzdor bilan kelishiladi va yozma ravishda garov narsasi bahosini kelishish bayonnomasini rasmiylashtiriladi.

Garov narsasi bahosining kelishuvi Bank filiali Baholash komissiyasi va qarzdor/garovga qo'yuvchi tomonidan amalga oshiriladi. Baholash komissiyasi ishida filial rahbari, muhandisi, kredit bo'lim boshlig'i va huquqshunos-maslahatchisining ishtiroki majburiydir. Garovga qo'yilgan mulk qiymatini kelishish garovga taklif etilayotgan mulk joylashgan joyga chiqib, tegishli hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Garov narsasi bahosini kelishish bayonnomasiga foto suratlar ilova qilinishi kerak. Bunda garov narsasining kelishuv bahosi baholovchi tashkilot bahosidan yuqori bo'lmasligi lozim.

Bank va garovga qo'yuvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra garov predmetini baholashni tuman/shahar filial yoki mintaqaviy filiali rahbarining buyrug'i bilan tuzilgan Baholash komissiyasi amalga oshiradi. Filial rahbarlari Baholash komissiyasining raisi bo'lib hisoblanadi. Garovga qo'yuvchi va tuman/shahar filiallari birgalikdagi baholash mazkur filiallar uchun bir qarzdorga o'rnatilgan kreditlash limiti doirasida kredit (lizing, kafolat berish) bo'yicha amalga oshiriladi. Boshqa holatlarda birgalikda garov mulkini baholash tegishli mintaqaviy filial

tomonidan o'tkaziladi. Bank kreditlari hisobiga import shartnomalar bo'yicha sotib olinib, keltirilgan yangi asbob uskunalar, transport vositalari, texnikalar (mulklar) garov predmeti bo'lganda, ularni tuman/shahar filiali yoki mintaqaviy filial Baholash komissiyasi garovga qo'yuvchi bilan birgalikda baholashi (mustaqil baholash) mumkin.

Garov predmetini birgalikda baholash natijalariga ko'ra garov predmetini baholash dalolatnomasi rasmiylashtiriladi, bunda Bank filiali nomidan baholash komissiya a'zolari va garovga qo'yuvchi tomonidan imzolanib, taraflarning muxri bilan tasdiqlanadi. Agar garovga qo'yuvchi uchinchi shaxs bo'lsa, dalolatnoma uch tomonlama, ya'ni qarzdor, garovga qo'yuvchi va Bank filiali Baholash komissiya a'zolari tomonidan imzolanadi va muxrlar bilan tasdiqlanadi.

Garovdagi mulk qiymati kreditlash xizmati summasining kamida 125 foizini tashkil etishi Baholash komissiyasi mulkning baholangan bozor qiymatini minimallashtirib, mulkning qadrsizlanishi, ma'naviy-moddiy eskirishi va boshqa holatlar bilan bog'liq barcha xatarlarini hisobga olishi lozim.

Hozirgi paytda tijorat banklari garov, kafillik yoki sug'urta shartnomalarini kredit shartnomasini tuzgandan keyin rasmiylashtiradilar. Lekin shartnomani kredit qaytishini kafolatlovchi hujjatlar taqdim etilganidan keyingina kuchga kirishi maqsadga muvofiq deb hisoblanishi mumkin.

Garov ostida kreditlash jarayonida tijoraat banklari odatda ssudalarni mol-mulkni butun qiymatiga emas, balki muayyan bir qismiga (garov obyekti qiymatining 50 foizdan 90% foizgacha) beradi. Shuning uchun garov beruvchida o'z mulkini qo'shimcha (kelgusi) garovga berish imkoniyati paydo bo'ladi. Mol-mulk (huquq) qiymatiga nisbatan qancha past bo'lsa, qarzdorda kelgusida qo'shimcha pul mablag'lariga ehtiyoj tug'ilganda qo'shimcha garov ehtimoli shuncha ortadi.

Garov bahosi yozma shaklda bayon etilgan bo'lishi va unda foydalanuvchilarga bahoni belgilashda tayanilgan asoslar xususida tasavvur berish

uchun yetarli ta'rif bo'lishi zarur. Garovni baholashda uning bozor qiymatini aniqlashga tayanish lozim.

Baholash ob'ektining bozor qiymati deganda mazkur baholash ob'ekti ochiq bozorda raqobat sharoitida sotilishi ehtimolga eng yaqin bo'lgan narx tushunilib, unga ko'ra mazkur baholash obyekti ochiq bozorda raqobat sharoitida, bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo'lgan holda o'z manfaatlari yo'lida oqilona va ixtiyoriy ravishda harakat qiladi, bitim narxining band-pastligida esa biror bir favqulotda holatlar, shu jumladan, taraflardan birining ushbu bitimga qo'shilish majburiyati aks etmaydi²⁷.

Bunda bitim tomonlari o'z manfaatlari o'ylab va majburlashsiz ish tutadilar, barcha zarur axborotga ega bo'ladilar, bitim narxining hajmiga esa, biron-bir favqulodda vaziyat, jumladan tomonlardan birining bitimni tuzish majburiyati ta'sir ko'rsatmaydi. Garovga qo'yilayotgan mulkning bozor qiymatini baholash, agar hisobot tayyorlash uchun maxsus bilimlar va tegishli litsenziyalar talab qilinsa, mustaqil baholovchi tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Bundan tashqari, unutmaslik kerakki, garov narsasi sug'urtalanishi ham talab etiladigan hollar mavjud. Chunki, shunday hollar bo'ladiki, garov predmeti sifatida qo'yilgan mol-mulk ma'lum bir sabablarga ko'ra shikastlanishi yoki yo'qolishi mumkin.

Agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, garovga qo'yuvchi yoki garovga oluvchi qo'yilgan mol-mulk kimdaligiga qarab garovga qo'yilgan mol-mulk yo'qolishi yoki shikastlanishi xavfidan uning to'la qiymati bo'yicha, bordi-yu mol-mulkning to'la qiymati garov bilan ta'minlangan talabning miqdoridan oshib ketsa, talab miqdoridan kam bo'lmagan summaga garovga qo'yuvchi hisobidan sug'urtalashi shart²⁸.

Garovga qo'yilgan mol-mulk sug'urta qilinganda garov bilan ta'minlangan majburiyat summasidan ortiq bo'lmagan summada sug'urta tovonini oluvchi —

²⁷ O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati to'g'risida"gi qonuni. 1999-yil 19-avgust, 7-modda.

²⁸ O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi qonuni. 1992-yil 9-dekabr, 12-modda.

garovga oluvchi hisoblanadi. Garovga qo'yuvchi sug'urta tovonining qolgan summasini oladi. Sug'urta hollari sodir bo'lganda garovga oluvchi o'z talablari sug'urta tovonini summasidan imtiyozli qondirilishi huquqiga ega bo'ladi.

Hozrgi kunda sug'urta kompaniyalari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning garovga qo'yilayotgan mulklari umumiy sug'urta tarmog'ining 8-9-klasslariga asosan sug'urtalanadi. Ushbu sug'urta turida sug'urta shartnomasi yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuziladi, sug'urta shartnomasini tuzish uchun bank tomonidan rasmiylashtiriladigan kredit shartnomasi va baholash dalolatnomasi, mulk to'g'risidagi ma'lumotlar sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur bo'ladi. Sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga belgilangan shaklda yozma ravishda ariza bilan murojat qiladi va bunda sug'urta puli sug'urta shartnomasi tuzilayotgan vaqtdagi bozor narxidan kelib chiqqan holda, milliy valyutada sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi hamda naf oluvchining kelishuviga asosan belgilanadi, sug'urta mukofoti esa ushbu sug'urta turini amalga oshirayotgan sug'urta kompaniyasi boshqaruvining qarori bilan tasdiqlangan sug'urta tarifi va sug'urtalanuvchining arizasida ko'rsatilgan sug'urta puli, sug'urta muddatiga ko'ra hisoblanadi.

Sug'urta kompaniyalari tomonidan garovga qo'yiladigan mol-mulkni sug'urtalash amalga oshirilayotgan sug'urta shartnomasi kompaniya tomonidan ishlab chiqilgan qoidalarga asosan tuziladi. Sug'urta kompaniyasining qoidalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq ishlab chiqildi va sug'urta kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar garovga qo'yilgan mol-mulkni zarardan, olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish shartlarni belgilaydi.

Garovga qo'yilayotgan mol-mulkni sug'urtalashda sug'urta faoliyatining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyatining sub'ektlari xisoblanadi. Sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari xamda boshqa xuquqiy va jismoniy shaxslar sug'urta bozorining professional ishtirokchilari xisoblanadi.

Garov sug'urtasida O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo'lmagan mol-mulkka egalik qilish, foydalanish va boshqarish bilan bog'liq mulkiy manfaatlar sug'urtalash ob'ektlari xisoblanadi. Garoaga qo'yilgan mol-mulkning sug'urtasi amalga oshirilayotgan vaqtda sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urtalanuvchiga yoki naf oluvchiga sug'urtalangan mol-mulkning jismoniy yo'qolishi va shikastlanishidan ko'rilgan to'g'ridan-to'g'ri zararlarni quyidagilar natijasida yuzaga kelgan bo'lsa qoplaydi:

- yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, erning ko'chishi, erning cho'kishi, erning surilishi, yer osti suvlarining xarakati, sel, chaqmoq urishi, zilzila;

- do'l, ko'p qor yog'ishi yoki muzlash; qulfni sindirib (buzib) qilingan o'g'rilik; mashina va mexanizmlarning, qurilish materiallari va qurilmalarning, shuningdek uchuvchi jismlarning qulab tushishi; isitish tizimlari, suv o'tkazgich va kanalizatsiya tarmoqlarining buzilishi; ichki santexnika tizimlarining yorilishi; uchinchi shaxslarning qonunga xilof ravishda qasddan sodir etgan xatti-harakatlari.

Garov premeti bo'yicha baholash va sug'urtalash bilan bog'liq va boshqa hujjatlar rasmiylashtirilgandan so'ng garov shartnomasi tuziladi. Shu asosda tegishli mol-mulk garovga qo'yiladi va garov huquqi paydo bo'ladi.

Garov huquqi garov to'g'risida shartnoma tuzilgan paytdan yoxud, basharti shartnoma notarial tasdiqlanishi shart bo'lsa notarial tasdiqlangan paytdan, shartnoma ro'yxatdan o'tkazilishi shart bo'lganida esa u ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi²⁹.

Misol sifatida, XATB "Orient Finans" Shayxontohur filialidan aylanma mablag'larni to'ldirish uchun 35,0 mln. so'm kredit olgan "Green light" MCHJ garov predmeti sifatida "Chevrolet Gentra" avtomobilini qo'ygan. Kredit oluvchi boshqa zaruriy hujjatlar bilan birga "Summut finis" MCHJ baholovchi tashkilot tomonidan avtomobilni baholash bo'yicha tuzilgan hisobotini ham taqdim etgan.

Unda baholovchi tashkilot haqidagi ma'lumotlar, avtomobil va uning egasi haqidagi ma'lumotlar aks etgan. Avtomobil haqida quyidagi ma'lumotlar aks

²⁹ O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi qonuni. 1992-yil 9-dekabr, 9-modda.

etgan: avtomobil nomi – “Chevrolet Gentra”, yurgan masofasi – 61 ming km, kuzov turi – sedan, holati – yaxshi, chiqarilgan yili – 2015-yil, bozor bahosi – 82.500.000,0 so`m.

Baholovchi tashkilotning hisobotida bundan tashqari baholash tamoyillari, tashkilot tomonidan baholash bo`yicha qo`llaniladigan metodlar hamda avtomobil qiymatini ifodalovchi boshqa ko`rsatkichlar keltirilgan. Hisobotning asosiy qismida “Chevrolet Gentra”ning bozor bahosi korrektirovka qilingan holda, 75.600.000,0 so`m sifatida belgilangan.

Shundan so`ng, ham garov qo`yuvchi, ham kredit oluvchi sifatida ishtirok etayotgan “Green light” MCHJ va XATB “Orient Finans” Shayxontohur filiali o`rtasida garov predmeti bahosini kelishish bo`yicha ikki tomonlama dalolatnoma tuzildi va imzolandi. Shu kabi zaruriy hujjatlar to`plangandan so`ng, Kredit qo`mitasining qaroriga asosan kredit shartnomasi tuzildi (KD2017/016, 07.05.2017). So`ngra, hujjatlar notariusga taqdim etildi va garov shartnomasi ham tuzilib, notarius tomonidan tasdiqlandi³⁰.

Bundan tashqari, kreditlar ajratilgandan so`ng ham muntazam ravisha garov mulki bank tomonidan nazorat qilib boriladi. Har chorak davomida bir marta garov mulki bank mutaxassislari tomonidan garov mulki joylashgan joyga borgan holda tekshiruv amalga oshiriladi va tegishli tartibda bayonnoma rasmiylashtiriladi. Bank mas`ul xodimi va garov mulki egasi tomonidan imzolangan bayonnoma kredit yig`majildiga tikib qo`yiladi. Shu asosda, kredit muddati tugab, qarzdor tomonidan olingan kredit to`liq qaytarilmagunga qadar garov mulki, albatta doimiy nazoratda bo`ladi.

2.2. O`zbekistonda tijorat banklari kreditlarida mol-mulk garovini qabul qilish holati tahlili

³⁰ “Summut finis” MCHJ baholovchi tashkilotning hisobot ma`lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Respublikamizda garov predmetini qabul qilish borasida yana ham yaqqolroq tushunchaga ega bo'lish uchun ba'zi amaliy ma'lumotlarni ko'rib chiqish lozim bo'ladi.

XATB "Orient Finans" Shayxontohur filialida amaliyot o'tish natijasida mavzu doirasida olingan ma'lumotlarni tahlil qilib o'tadigan bo'lsak, ushbu filialning kredit faoliyati, kredit portfeli hamda garov ta'minotlari bilan bog'liq bir qator ma'lumotlarga e'tibor qaratib o'tish mumkin bo'ladi.

Garov ta'minoti bilan bog'liq ma'lumotlarni keltirishdan oldin, ushbu filialning kredit faoliyatiga to'xtalib o'tish joiz bo'ladi.

1-jadval

XATB "Orient Finans" Shayxontohur filiali kredit portfeli, (ming so'm)³¹


Kredit turi	01.05.2017 holatiga kredit qoldig'i	Kredit portfelidagi ulushi
Qisqa muddatli kreditlar	38.007.730,0	32,42%
Uzoq muddatli kreditlar	79.225.297,3	67,58%
Muddati o'tgan qarzdorliklar	0,0	0,0%
JAMI	117.233.027,3	100,0%

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, XATB "Orient Finans" Shayxontohur filiali kredit portfeli 2017-yil 1-may holatiga jami 117.233.027,3 ming so'mni tashkil etgan holda, uning tarkibida kredit portfelining 32,42 foizni qisqa muddatli kreditlar tashkil etib turibdi hamda ularning qiymati 38.007.730,0 ming so'mni tashkil etadi. Uzoq muddatli kreditlar esa hisobot yilining 1-may sanasiga 79.225.297,3 ming so'mni tashkil qilmoqda, ularning jami kredit portfelidagi ulushi esa 67,58 foizni qamrab olgan, ya'ni ko'rinib turibdiki, filial tomonidan taqdim etiladdigan kreditlarning asosiy qismi bir yildan uzoq muddatga beriladi. Bunga sabab, kreditlar asosan asosiy vositalar hamda uzoq muddatli aktivlar sotib olish uchun taqdim etilayotganligidir. Shu o'rinda, muddati o'tgan

³¹ XATB "Orient Finans" bank hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

qarzdorliklarning mavjud emasligi filial faoliyatining to'g'ri tashkillashtirilganligidan, hamda qarzdorlarning moliyaviy holatini tahlil qilish yaxshi tashkil etilganligidan dalolat beradi. Chunki, muddati o'tgan qarzdorlik bank faoliyatini yomonlashtiradi.

Banklarning kredit faoliyatlarida asosan tekshiriladigan holatlardan biri – muammoli kreditlarning yo'qligidir. Muammoli kreditlar tijorat banklari faoliyatini orqaga tortadi, ularning hal qilinishining o'zi uzoq va murakkab jarayon hisoblanadi. Bunda, kredit oluvchining moliyaviy holatiga oid ko'rsatkichlar yaxshi tahlil qilinmagani, doimiy nazorat olib borilmagani hamda boshqa holatlar sabab sifatida ko'rsatilishi mumkin. Lekin, XATB “Orient Finans” Shayxontohur filiali bunday muammodan holi.




8-rasm. XATB “Orient Finans” Shayxontohur filiali kredit portfelining o'zgarish dinamikasi, (ming so'm)³²

Ushbu diagrammadan ko'rish mumkinki, 2016-yil 1-may sanasidan 2017-yil 1-mayga qadar filialning kredit portfeli sezilarli summaga ortgan, ya'ni ikki barobarga ko'paymoqda. Bank kredit portfelida qisqa va uzoq muddatli kreditlar o'rin olgan bo'lib, ularning qiymati quyidagichadir. Uzoq muddatli kreditlar 2017-yil 1-may holatiga 79.225.297,3 ming so'mni tashkil qilayotgan bo'lsa, o'tgan

³² XATB “Orient Finans” bank hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

yilning shu davrida ularning jami miqdori bor yo'g'i 10.122.146,5 ming so'mni tashkil qilgan, ya'ni uzoq muddatli kreditlar umumiy holatda deyarli sakkiz barobarga ortmoqda. Qisqa muddatli kreditlarda esa aksincha pasayishni ko'rmoqdamiz. Ya'ni, qisqa muddatli kreditlar qoldig'i 2016-yilning 1-may holatida 44.388.65,2 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, joriy yilning shu holatiga 38.007.730,0 ming so'mni tashkil etib turibdi.

Bundan shu xulosaga kelish mumkinki, filial o'tgan bir yil mobaynida o'z e'tiborini ko'proq uzoq muddatli kreditlarga qaratmoqda. Aylanma mablag'larni to'ldirishga taqdim etilayotgan kreditlar ham kam emas, lekin ular uzoq muddatli kreditlarning yarminigina tashkil etmoqda. Qisqa va uzoq muddatli kreditlarning o'zaro nisbatini quyidagi diagrammada batafsil ko'rish va baho berish mumkin bo'ladi.



9-rasm. XATB “Orient Finans” Shayxontohur filiali kredit portfelida qisqa va uzoq muddatli kreditlarning o'zaro nisbati, (foizda)³³

Qisqa va uzoq muddatli kreditlarning o'zaro nisbati haqidagi ma'lumotlarni yuqorida ham ko'rib o'tdik, zero ushbu diagrammada buni yana ham yaqqolroq ko'rish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ya'ni, 2016-yil 1-may holatida kredit portfelining $\frac{1}{4}$ qismi aynan qisqa muddatli kreditlarga tegishli bo'lsa, uzoq muddatli kreditlar 18,6% ni tashkil etgan. 2017-yil 1-may holatida esa buning aksiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

³³ XATB “Orient Finans” bank hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Quyidagi jadvalda kreditlarning garov ta`minoti bilan ta`minlanish holati keltirilgan.

2-jadval

XATB “Orient Finans” Shayxontohur filiali kredit ta`minoti, (ming so`m)³⁴

Ta`minot turlari	01.05.2017 holatiga kreditlar ta`minotining qiymati	Ulushi
Ko`chmas mulk garovi	137.733.516,0	72,69%
Avtotransport vositasi garovi	1.400.800,0	0,74%
Asbob-uskunalar garovi	16.200.000,0	8,55%
Kafillik	31.351.513,8	16,55%
Sug`urta polisi	88.843,0	0,05%
Depozit	2.707.167,2	1,42%
JAMI	189.481.840,0	100,0%

Jadval ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki, 2017-yil 1-may holatiga ta`minot turlari ichida eng asosiy o`rinni ipoteka, ya`ni ko`chmas mulk garovi egallab turibdi, jami ta`minot qiymatining 72,69 foizni tashkil etgan holda, 137.733.516,0 ming so`m qiymatiga ega. Ta`minot turlarining ichida keyingi o`rinni uchinchi shaxs kafilligi egallab turibdi va jami kafilliklar qiymati 31.351.513,8 ming so`mni tashkil etmoqda, ularning ulushi esa 16,55 foizga teng. Shu o`rinda ta`kidlash mumkinki, avtotransport vositalari ko`p marta garov ta`minoti sifatida qo`llansada, ularning qiymati nisbatan pastroq bo`lganligi sababli ularning ulushi nisbatan anchagina past, ya`ni 0,74 foiz. Shu o`rinda asbob uskunalar garovi 8,55 foizni, sug`urta polisi garovi 0,05 foizni, depozitlar garovi 1,42 foizni tashkil etib turibdi. Umuman olganda, mijozlar turli garov mulklari evaziga ushbu bankdan kredit olish imkoniyatiga egadirlar.

3-jadval

XATB “Orient Finans” Shayxontohur filiali kredit ta`minoti, (ming so`m)³⁵

³⁴ XATB “Orient Finans” bank hisobot ma`lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

³⁵ XATB “Orient Finans” bank hisobot ma`lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Ta`minot turlari	Kredit ta`minotlari qiymati		O`zgarishi	
	01.05.2016	01.05.2017	summada	foizda
Ko`chmas mulk garovi	38 625 000,0	137 733 516,0	+99 108 516,0	+256,59%
Avtotransport vositasi garovi	10 723 115,0	1 400 800,0	-9 322 315,0	-86,94%
Asbob-uskunalar garovi	0,0	16 200 000,0	+16 200 000,0	-
Kafillik	45 672 401,3	31 351 513,8	-14 320 887,5	-31,36%
Sug`urta polisi	619 393,0	88 843,0	-530 550,0	-85,66%
Depozit	72 954,6	2 707 167,2	+2 634 212,6	+3610,76%
JAMI	95 712 863,9	189 481 840,0	+93 768 976,1	+97,97%


Jadval ma`lumotlariga e`tibor qaratadigan bo`lsak, filialning jami kreditlarning ta`minot qiymati joriy davrda 97,97 foizga, ya`ni deyarli ikki barobarga ko`paygan. Boshqacha aytganda, ularning qiymati 93.768.976,1 ming so`mga ortgan holda, 189.481.840,0 ming so`mni tashkil qilmoqda. Shu o`rinda, eng katta o`sinh depozitlar garoviga tegishli bo`lib, ularning qiyamti bir yil ichida 3610,76 foizga ortgan. Bu esa o`z navbatida, kreditlarning depozitlar orqali ta`minlanishi shu oraliq vaqt ichida anchagina ko`paygan. Ko`chmas mulk garovi qiymati ham o`tgan bir yil davomida qariyb 100,0 mlrd. so`mga ortganini ko`rishimiz mumkin. Asbob-uskunalar garoviga e`tibor qaratadigan bo`lsak, bir yil avval ushbu filialda, asbob-uskunalar garovi ostida berilgan hech qanday kredit mavjud bo`lmagan. Lekin 2017-yil 1-may holatiga asbob-uskunalar garovi qiymati 16,2 mlrd. so`mni tsahkil etib turibdi, buni ijobiy holat deb baholash mumkin. Biroq, shu o`rinda o`tgan bir yil vaqt mobaynida bir qator ta`minot turlarida pasayishni kuzatish mumkin, ya`ni avtotransport garovi qiymati 9.322.315,0 ming so`mga, uchinchi shaxs kafilligi 14.320.887,5 ming so`mga kamaygan.

Bundan tashqari, shuni ta`kidlab o`tish joizki, garov ta`minoti haqida gapirganda “Garov reestri”ni tilga olib o`tmaslik mumkin emas. “Garov reestri” bu garov ta`minotlari haqida ma`lumotlar keltirilgan baza hisoblanadi. Ushbu amaliyot boshqa mamlakatlarda ancha oldin boshlanganini inobatga olgan holda,

bizda ham garov ta'minotlari umumiy bazasi tashkil etildi. Garov reestrining tashkil etilganiga unchalik ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsada, ushbu sohadagi munosabatlar ancha yaxshi shakllanishga ulgurdi.

Garov reestri – bu qarzdorlarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash vositasi sifatida berib qo'ygan mol-mulkiga nisbatan kreditorlarning, shuningdek qarzdorning mol-mulkni tasarruf etish va undan foydalanishga doir huquqlariga qonunga muvofiq qo'yilgan cheklov hamda qarzdor o'z majburiyatlari lozim darajada bajarilishini ta'minlashi bilan bog'liq boshqa talablar haqidagi yozuvlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarning yagona axborot bazasidir³⁶.

Garov reestridan yozuvlarni qidirishga ham yuridik ham jismoniy shaxslar hech qanday cheklovlarsiz amalga oshirishlari mumkin. Garov reestrining qolgan funktsiyalariga kirishga saytda shaxsiy kabinet ochgan shaxslarga beriladi.




10-rasm. “Garov reestri”da o`z shaxsiy kabinetiga ega bo`lgan foydalanuvchilar miqdori³⁷

Diagrammadan ko`rinib turibdiki, 47 ta lombard, 27 ta tijorat banklari va boshqa foydalanuvchilar “Garov reestri”dan foydalanadilar.

³⁶ O'zbekiston Respublikasining “Garov reestri to'g'risida”gi qonuni. 2013-yil 23-oktyabr, 3-modda.

³⁷ www.garov.uz - “Garov reestri” davlat unitar korxonasining rasmiy veb sayti ma'lumotlari.

“Garov reestri” bir necha yillardan beri faoliyat olib boradi. Shu vaqt mobaynida bir qator garov turlariga oid juda ko`plab yozuvlar kiritilgandir. Ular to`g`risida quyida misollar keltirilgan.



11-rasm. “Garov reestri”da o`z shaxsiy kabinetiga ega bo`lgan foydalanuvchilar miqdori, (mingta)³⁸

Diagrammadan ko`rinib turibdiki, “Garov reestri”dan foydalanuvchilar soni 2014-yilda 146,5 mingta bo`lgan bo`lsa, 2015-yilga kelib bu ko`rsatkich 118,0 mingtani, 2016-yilda esa 106,0 mingtani tashkil etgan. So`nggi yillarda garov reestridan foydalanuvchilar soni oshib bormoqda. Bunda qarzdorlarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash vositasi sifatida berib qo'ygan mol-mulkiga nisbatan kreditorlarning, shuningdek qarzdorning mol-mulkni tasarruf etish va undan foydalanishga doir huquqlariga qonunga muvofiq qo'yilgan cheklov hamda qarzdor o'z majburiyatlari lozim darajada bajarilishini ta'minlashi bilan bog'liq boshqa talablar haqidagi yozuvlarni kiritish imkoniyati mavjud hisoblanadi. Shu sabab, garov reestridan keng foydalanilmoqda.

4-jadval

“Garov reestri”ga qabul qilingan garov ta`minoti miqdorlari (21.06.2017)³⁹

³⁸ www.garov.uz - “Garov reestri” davlat unitar korxonasining rasmiy veb sayti ma`lumotlari.

Garov ta`minotlari	Miqdori
Ko`chmas mulk	35 606
Ko`chmas mulk (ipoteka)	31 629
Ko`chmas mulk (qishloq joylaridagi namunaviy uy-joylar)	17 903
Transport vositalari	125 444
Asbob-uskuna	3 032
Tovar-material qimmatliklar	3 807
Aylanmadagi tovarlar	162
Kelgusi hosil	12
Qoramol	56
Depozit	20 017
Depozit sertifikat	2
Pay badali	15
Aksiyalar	6
Obligatsiyalar	4
Davlat qimmatli qog`ozlari	97
Zargarlik buyumlari	781

Jadval ma`lumotalridan ko`rinib turibdiki, eng ko`p garov sifatida qo`yilgan ta`minot turi bu transport vositalari hisoblanadi, ularning jami miqdori 2017-yil 1-aprel holatiga 126.820 tani tashkil etgan. Ko`chmas mulk ham juda ko`p marta garov sifatida qo`yilishini ko`rishimiz mumkin. Lekin, qimmatli qog`ozlar garovi salmog`i juda kam, bor yo`g`i 6 ta aksiya va 4 ta obligatsiya garov ta`minoti sifatida “Garov reestri”ga kiritilgan.

2.3. Kreditlarni qaytarish bilan bog`liq operatsiyalar va ularning tahlili

³⁹ www.garov.uz - “Garov reestri” davlat unitar korxonasining rasmiy veb sayti ma`lumotlari.

Mijoz tomonidan kredit olish uchun barcha zaruriy hujjatlar taqdim etilganidan so`ng, uning nomiga ssuda hisobvarag`i ochiladi hamda ushbu hisobvaraqdan mablag` oluvchining hisobvarag`iga kredit mablag`lari o`tkazib beriladi. Shundan so`ng esa, ssuda hisobvarag`idagi qoldiqlar, ya`ni asosiy qarz kredit olgan shaxs tomonidan so`ndirib boriladi.

Bank yuridik shaxsga kredit berdi⁴⁰:

Debet 13101 – “Xususiy korxonalar, xo`jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar”

Kredit 10301 yoki 16103 yoki 202XX (sotuvchi yoki xizmat ko`rsatuvchi)

Yuridik shaxsga berilgan kredit bo`yicha foiz hisoblandi:

Debet 16309 – “Kreditlar bo`yicha hisoblanagan foizlar”

Kredit 42601 – “Xususiy korxonalar, xo`jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar”

Yuridik shaxsdan kreditga hisoblangan foiz undirib olindi:

Debet 20208 – “Xususiy korxonalar, xo`jalik shirkatlari va jamiyatlarning talab qilib olinguncha saqlanadi'gan depozitlari”

Kredit 16309 - “Kreditlar bo`yicha hisoblanagan foizlar”

Bank yuridik shaxsning kreditini so`ndirdi:

Debet 20208 - “Xususiy korxonalar, xo`jalik shirkatlari va jamiyatlarning talab qilib olinguncha saqlanadi'gan depozitlari”

Kredit - 13101 – “Xususiy korxonalar, xo`jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar”

Agar kredit oluvchilarning mablag`lari bo`lmaganligi sabab olingan kreditlar muddatida to`lanmasa, ushbu kreditlar muddati o`tgan kreditlar hisobvarag`ida hisobga olinadi.

Yuridik shaxsga berilgan, lekin muddatida qaytmagan kreditlarning mudati o`tgan kreditlar hisobvarag`iga olinishi:

⁴⁰ Omonov A.A., Qoraliyev T.M. “Banklarda buxgalteriya hisobi”. Darslik. T.: “Iqtisod-Moliya”, 2014-yil, 124-bet.

Debet 13105 – “Xususiy korxonalar, xo`jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan muddati o`tgan kreditlar”

Kredit - 13101 – “Xususiy korxonalar, xo`jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar”

Bank muddatida qaytmagan va uzoq vaqt davomida muammoli hisoblangan kreditlarni qaytarib olish uchun xo`jalik sudlariga da`vo arizalari kiritishi mumkin.

Bank yuridik shaxsga berilgan kredit bo`yicha yo`qotilishi mumkin bo`lgan zararlarni qoplash uchun zaxira shakllantiradi:

Debet 56802 – “Kreditlar bo`yicha ko`rilishi mumkin bo`lgan zararlarni baholash”

Kredit 13199 – “Xususiy korxonalar, xo`jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha ko`riliishi mumkin bo`lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)”

Yuridik shaxslarga berilgan kreditlar bankning zaxirasi hisobidan yopilganda:

Debet 13199 – “Xususiy korxonalar, xo`jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha ko`rilishi mumkin bo`lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)”

Kredit 13105 – “Xususiy korxonalar, xo`jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan muddati o`tgan kreditlar”

Muammoli kreditlar tijorat banklarining faoliyatiga salbiy ta`sir etuvchi holatlarga sabab bo`ladi. Chunki, “qoniqarsiz”, “shubhali”, “umidsiz” sifatdagi kreditlar, ya`ni muammoli kreditlar bank foydasidan zaxira tashkil etishga majbur etadi. “Qoniqarsiz” kreditlarga 25 foiz, “shubhali” kreditlarga 50 foiz hamda “umidsiz” kreditlarga 100 foiz zaxira tashkil etiladi.

Kredit bo`yicha asosiy qarzni qaytarish bank tomonidan taqdim etilgan grafik asosida amalga oshiriladi. Kredit to`liq qaytarilganda mijozda hech qanday muammo yuzaga kelmaydi. Lekin, kreditning qaytarilishi bo`yicha muammolar

yuzaga kelganda, so`nggi chora undiruvni garovga qo`yilgan mol-mulkka qaratish hisoblanadi.

Garovga oluvchining (kreditorning) talablarini qondirish uchun undiruvni qarzdor garov bilan ta'minlangan majburiyatni o'zi javobgar bo'lgan vaziyatlarda bajarmagan taqdirda yoki lozim darajada bajarmaganda garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratishi mumkin⁴¹.

Yuridik shaxs — garovga qo'yuvchi qayta tashkil etilgan yoki tugatilgan taqdirda, garovga oluvchi garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarish muddati boshlanishidan qat'i nazar, undiruvni garovdagi mol-mulkka qaratishga haqli. Garovga oluvchining (kreditorning) talablari garovga qo'yilgan ko'chmas mol-mulk qiymatidan sudning qaroriga muvofiq qondiriladi. Garovga oluvchining talabini garovga qo'yilgan ko'chmas mol-mulk hisobidan sudga murojaat qilmasdan qondirishga, agar bu garov to'g'risidagi shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa yoxud undiruvni garov narsasiga qaratish uchun asoslar vujudga kelganidan keyin garovga oluvchining garovga qo'yuvchi bilan tuzilgan, notarial tartibda tasdiqlangan kelishuvi asosida yo'l qo'yiladi. Mazkur kelishuv tufayli huquqlari buzilgan shaxsning da'vosiga ko'ra bunday kelishuv sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Garovga oluvchining talablari garovga qo'yilgan ko'char mol-mulk hisobidan sud qaroriga muvofiq qondiriladi. Agar qonunda boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, undiruv garovga oluvchiga topshirilgan garov narsasiga garov to'g'risidagi shartnomada belgilangan tartibda qaratilishi mumkin.

Undiruv garov narsasiga quyidagi hollarda faqat sudning qaroriga muvofiq qaratilishi mumkin:

- garov to'g'risida shartnoma tuzish uchun boshqa shaxs yoki organning roziligi yoxud ruxsati talab qilinganida;
- garov narsasi jamiyat uchun tarixiy, badiiy yoki o'zga madaniy ahamiyatga ega mol-mulk bo'lsa;

⁴¹ O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi qonuni. 1992-yil 9-dekabr, 26-modda.

- garovga qo'yuvchi yo'qolgan bo'lsa va uning turgan joyini aniqlash mumkin bo'lmasa.

Garovga qo'yilgan mol-mulk kim oshdi savdosida eng yuqori narxni taklif qilgan shaxsga sotiladi. Agar garovga qo'yilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan summa garovga oluvchining talabini qoplashga etarli bo'lmasa, u, qonunda yoki shartnomada boshqacha ko'rsatma bo'lmaganida, etishmayotgan summani garovga asoslangan imtiyozdan foydalanmagan holda qarzdorning boshqa mol-mulkidan olish huquqiga ega. Agar garovga qo'yilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan summa garovga oluvchining garov bilan ta'minlangan talabidan oshib ketsa, farq garovga qo'yuvchiga qaytarib beriladi.

Kim oshdi savdosi amalga oshmagan deb e'lon qilinganida garovga oluvchi garovga qo'yuvchi bilan kelishib, garovga qo'yilgan mol-mulkni sotib olishga va xarid narxini garov bilan ta'minlangan o'z talablari hisobiga o'tkazishga haqli. Bunday kelishuvga nisbatan oldi-sotdi shartnomasi qoidalari qo'llaniladi. Takroriy kim oshdi savdosi amalga oshmagan deb e'lon qilinganida garovga oluvchi garov narsasini takroriy kim oshdi savdosidagi boshlang'ich sotish narxidan ko'pi bilan o'n foiz kamaytirgan summada baholab, o'zida olib qolishga haqli. Agar garovga oluvchi garov narsasini o'ziga olib qolish huquqidan takroriy kim oshdi savdosi amalga oshmagan deb e'lon qilingan kundan e'tiboran bir oy davomida foydalanmasa, garov shartnomasi bekor qilinadi⁴².

Mulkiy huquqlar garovida garov narsasini realizatsiya qilish garovga qo'yuvchining garovga qo'yilgan huquqdan kelib chiquvchi talabdan garovga oluvchi foydasiga voz kechishi orqali amalga oshiriladi. Garovga oluvchi undiruvni garov narsasiga qaratish huquqi vujudga kelgan paytda garovga qo'yilgan huquq sud tartibida o'ziga o'tkazilishini talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Garovga qo'yuvchi majburiyatni muddatidan oldin bajarishga haqli, garovga oluvchi esa, agar bu qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa yoxud majburiyat mohiyatidan yoki ish muomalasi odatlaridan yoxud boshqa

⁴² O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi qonuni. 1992-yil 9-dekabr, 29-modda.

odatda qo'yiladigan talablardan kelib chiqsa, muddatidan oldingi ijroni qabul qilishi shart. Garovga oluvchi qonunda nazarda tutilgan hollarda, garov bilan ta'minlangan majburiyat muddatidan oldin bajarilishini talab qilishga haqli.

2-bob bo'yicha xulosa

Bitiruv malakaviy ishining navbatdagi bobida yurtimizda kredit operatsiyalari va garov bilan bog'liq holatlarning amaldagi ifodasini ko'rish mumkin bo'ladi. Ya'ni, tijorat banklari tomonidan garov munosabatlarini hujjatlashtirish qanday amalga oshiriladi, qanday mulklar garov predmeti bo'lishi mumkin-u, qandaylari bunday imkoniyatga ega emas, shu va boshqa muhim faktlar bilan tanishib chiqish mumkin bo'ladi. Umuman olganda, garov predmetiga qo'yilgan talablarga javob beruvchi ta'minot vositasi qarz oluvchining majburiyatlarini kafolatlab turishi mumkin. Lekin, shunday mol-mulk turlari mavjudki, ulardan garov predmeti sifatida foydalanish ba'zi holatlarga ko'ra muvofiq deb hisoblanmaydi. Bular haqida ushbu bobda batafsil tushuntirilgan.

Tijorat banklaridan tashqari, ko'rishimiz mumkinki, boshqa bir qator subyektlar garov munosabatlarida ishtirok etadi. Bunda baholovchi tashkilotlar garov predmetini turli mezonlarga asoslangan holda o'rganib, ularning taxminiy qiymatini o'z hisobotlari orqali taqdim etadilar. Baholovchi tashkilotning bergan bahosiga asoslangan holda tijorat banklari so'nggi qiymatga kelishadilar. Shu o'rinda, sug'urta tashkilotlari ham olinayotga kreditlar hamda garov predmetlarini sug'urtalash faoliyatini amalga oshirgan holda garov munosabatlarining ajralmas bo'lagiga aylanishgan. Agar garov predmeti kredit mablag'larining qaytarilishini kafolatlaydigan bo'lsa, ularni sug'urtalash garov predmetining o'zini kafolatlashni nazarda tutadi.

Ushbu bobda ko'rsatilgan amaliy ma'lumotlar esa hozirgi vaqtda yurtimiz tijorat banklaridagi holatlarni aks ettirganini isbotlab beradi. Buni birgina XATB "Orient Finans" Shayxontohur filiali misolida ko'rib o'tildi.

3-BOB. KREDITLASH MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHDA GAROV MULKLARI BILAN ISHLASH TARTIBI VA UNDAGI MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH YO`LLARI

3.1. Kredit munosabatlarini rivojlantirishda garov munosabatlarini takomillashtirish masalalari

Albatta, ko`rib o`tganimizdek kredit munosabatlarini garovsiz tasavvur etish qiyin. Shu sabab, kredit munosabatlarining rivojlanishi garov mulklari va ularni qabul qilish tartibini takomillashtirish ham o`ziga xos ahamiyatga ega.

Kredit so`rab tijorat banklariga murojaat qiluvchi mijozlarda yuzaga keluvchi qiyinchiliklardan biri bu, garovga qo`yich uchun mol-mulk yo`qligi yoki uning qiymati yetarli darajada emasligidir. So`nggi vaqtlarda, bitiruvchilarni ish bilan ta`minlash hamda ularning tadbirkorlik faoliyatiga yo`l ochishga katta e`tibor berilmoqda. Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan tashkil etilayotgan “Mening biznes g`oyam”, “Yosh tadbirkor-elga madadkor” kabi tadbirlarning tashkil etilishi yoshlarga, kollej bitiruvchilarga o`z tadbirkorlik faoliyatlarini boshlashda yordam bermoqda, shu asosda imtiyozli kreditlar ajratilmoqda.

Hatto, imtiyozli kredit olayotganlarni ham qiynaydigan bir muammo bor. Bu esa ta`minot. Yaxshi biznes g`oyanga bo`lsa-yu, imtiyozli kredit olish uchun garovga qo`yishga mol-mulking bo`lmasa, bu ham achinarli. Lekin, so`nggi yillarda bu borada ham qator yangilanishlarning guvohi bo`lmoqdamiz. Birgina, prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan bir qator qarorlar orqali ham kreditlarning foizlari, ham ta`minot turlari osonlashtirilmoqda.

Umuman, olganda prezident qarorlari asosida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bir misol sifatida, 2017-yil 31-yanvarda PQ-2746-son bilan qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarorini keltirib o`tish mumkin. Bunda, mehnat bozoriga yangi kirib

kelayotgan o`rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta`lim muassasalarining bitiruvchilari, muddatli harbiy xizmatdan qaytgan jismoniy shaxslar, mehnat organlarida ro`yxatga olingan band bo`lmagan fuqarolar hamda ishga joylashishga ehtiyojmand bo`lgan aholi qatlamlarining moliyalash xizmatidan foydalanishini kengaytirish ko`zda tutilgan. Bunda imtiyozli foizlarda eng oylik ish haqining 200 barobarigacha bo`lgan miqdorda kreditlar berish haqida gap ketmoqda⁴³.

Ushbu qarorning 5-bandi, aynan, kredit oluvchilarni ko`p qiynaydigan holatga, to`g`rirog`i, garov ta`minotiga bag`ishlangan. Unga ko`ra, eng oylik ish haqining 100 barobarigacha bo`lgan miqdorda kreditlashda – xarid qilinadigan mulk yoki fuqarolarni o`zini-o`zi boshqarish organlari kafilligi, eng oylik ish haqining 100 barobaridan oshadigan miqdorda kreditlashda – uchinchi shaxs kafilligi, sug`urta polisi yoki boshqa ta`minot turlari kreditni ta`minlash vositasi bo`lishi mumkin. Bu yerda, eng e`tiborni tortadigan holat, bu kredit evaziga olinayotgan mulkning bir vaqtning o`zida garov predmeti vazifasini bajarishidir.

Garov munosabatlarida yuridik va jismoniy shaxslarga yengilliklar yaratish hamda ular ushbu munosabatlarni yanada teranroq anglab yetishlari uchun alohida konsalting bo`limlarini joriy etish, aholi bilan ochiq muloqot tashkil etib, ularni qiziqtirgan savollarga aniqroq ma`lumotlar bilan javob qaytarish, o`z navbatida, kelgusida banklar faoliyati kengayishiga olib keladi. Shu sababdan, prezidentimiz ham ushbu holatlarni chuqur anglagan holda quyidagi fikrlarni bildirganlar: “Ustuvor vazifalar qatorida “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturini amalga oshirish doirasida aholi bilan doimiy va ochiq muloqotni rivojlantirishga, aholi turmish darajasini va sifatini, uning moddiy farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni faol davom ettirish masalalari markaziy o`rinni egallaydi”⁴⁴.

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-yanvardagi “Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-2746-sonli qarori.

⁴⁴ Mirziyoev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak”- Toshkent: “O`zbekiston”, 2017-yil.

Garov mulklarini takomillashtirishda ikki tomonlama e'tibor qaratish zarurdir. Ya'ni, birinchidan, garov predmeti bankni qanoatlantirishi lozimligi, nisbatan likvidliroq, ishonchliroq vositalarning garov ta'minotiga qo'yilishi bo'lsa, ikkinchidan, kredit oluvchining garov ta'minotiga biror mulk qo'yishda imkoniyatlarining kengligidir. Kreditga olinayotgan mulkning o'zidan ta'minot sifatida foydalanish, bu har qanday kreditga ehtiyojmand shaxsni qoniqirishi aniq.

Garov mulklarini takomillashtirish masalalariga doir yuqoridagi holatni XATB "Orient Finans" bo'yicha ba'zi amaliy malumotlarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, kredit olish istagini bildirgan mijozlarga yaratilgan imkoniyatlardan biri bu, garov ta'minotiga kreditga olinayotgan mulkning qo'yilishidir. Siz tadbirkorlik faoliyatingiz bo'yicha, masalan, transport vositasini kreditga olmoqchi bo'lsangiz, aynan, ushbu, transport vositasi garov ta'minoti o'rnini ham bosadi. Lekin, shunisi ma'lumki, ssuda hisobvarag'idan mablag'lar chiqib ketgani bilan darhol, transport vositasi kredit oluvchiga yetkazib berilmaydi, bu ham ancha vaqt talab etishi mumkin. Shu sabab, bu oraliq vaqtda, hali egasiga yetkazib berilmagan transport vositasi bo'yicha tuzilgan shartnoma asosida sug'urtalanish amalga oshiriladi. Bu tijorat banki uchun ham qulaydir, chunki, sug'urta polisi hali o'zi mavjud bo'lmagan garov predmeti o'rnini vaqtinchalik bosib turadi.

Bir necha yillar oldin garov munosabatlari sohasida eng katta muammo sifatida garov ta'minotlari bo'yicha umumiy bazaning yetishmasligi edi. Lekin 2013-yil 23-oktabrda "Garov reestri to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi hamda "Garov reestri" DUKning tashkil etilishi garov munosabatlari sohasidagi ijobiy o'zgarish sifatida baholandi. Unda barcha 27 ta tijorat banklari foydalanuvchi sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lib, garov predmetlari bo'yicha umumiy bazadan foydalanishlari, ma'lumotlar kiritishlari, o'zgartirishlari hamda ko'chirma olishlari mumkin bo'ldi. Bungacha esa bir garov mulki noqonuniy tarzda bir vaqtning o'zida bir qancha majburiyatlarni ta'minlab turgan holatlari kuzatilgan. Kredit olgan shaxs to'lovga layoqatsiz bo'lib qolgan hollarida, garov

predmetiga undiruv qaratishda ko`plab tushunmovchiliklar yuzaga kelgan. “Garov reestri”ning tashkil etilishi esa garov munosabatlarini yangi pog`onaga olib chiqdi.

Yurtimizda birja faoliyatini rivojlantirish garovli bitimlarning ahamiyatini oshiradi. Garovli bitimlar bu – tomonlardan biri o`z majburiyatlari ijro etilishining kafolati sifatida bitim tuzilgan paytda ikkinchi tomonga ular o`rtasidagi shartnomada belgilangan summani to`laydigan bitimdir. Garov sotuvchining manfaatlarini ham, xaridorning manfaatlarini ham ta`minlashi mumkin. Shu sababli xarid qilish uchun garovli bitimlar (garov to`lovchisi xaridor hisoblanadi, garov sotuvchining manfaatlarini himoya qiladi) va sotish uchun garovli bitimlar (garov to`lovchisi sotuvchi hisoblanadi, garov xaridorning manfaatlarini himoya qiladi) farqlanadi. Sotish uchun garovli bitimlarda garov sifatida yetkazib berilishi lozim bo`lgan tovarning bir qismi xizmat qilishi mumkin. Garov hajmi bitim qatnashchilari tomonidan belgilanadi va bitimning 100%igacha istalgan miqdorda bo`lishi ko`zda tutiladi<sup>43</sup> Birja amaliyotida garovning hamma turlari ham foydalanilmaydi. Eng ko`p qo`llanadigan tur zakalat bo`lib, bunda sotuvchi shartnomani tuzishda tovarning sifat ko`rsatkichlari bo`yicha shartnoma predmetiga javob beradigan bir qismini xaridorga beradi. Majburiyatni bajarishda tovarning bu qismi oldindan yetkazib berish sifatida hisobga olinadi. Shartnoma predmeti shartnomani ijro etish muddati kelgunga qadar xaridor ishlab chiqaradigan (sotib oladigan) tovar hisoblangan bitimlarda boshqa garov turlari ham foydalanilishi mumkin. Biroq amaliyotda ulardan foydalanishda qator muammolar vujudga keladi. Masalan, ipotekada garovga qo`yiladigan mulkni ekspertlar tomonidan baholash zarur, tovar birjasi esa halqaro amaliyotda ko`chmas mulkni baholash bilan shug`ullanmaydi, chunki u birja savdolari doirasiga kirmaydi. Xuddi shu narsa mulkiy huquqlar garoviga ham taalluqli. Tovar ishlab chiqarish xarajatlari oldindan ma`lum, ularning narxi esa xaridor uchun qulay bo`lgan hollarda forvard bitimlari iqtisodiy nuqtai nazardan ishlab chiqarish barqarorligini qo`llab-quvvatlashning eng samarali usuli hisoblanadi. Biroq bozor infratuzilmasining rivojlanishi, ishlab chiqarish jarayonining bir

nechta mustaqil tarmoqlarga parchalanib ketishi sharoilarida tovarning «haqiqiy» narxini oldindan hisoblab chiqish qiyin.

Barchaga ma'lumki, garovga qo'yilgan mulkni rasmiylashtirish bank uchun ham qo'shimcha ish hisoblanadi. Garov shartnomasining tuzilishi, garov bilan bo'g'liq hijjatlarning ko'rib chiqilishi, garov hujjatlarini balansdan tashqari hisobvaraqaqa kirim qilish kabilarni misol keltirish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-yanvarda qabul qilingan «2011-2015-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida islohotlar ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirish, mamlakatda ishchanlik muhitini shakllantirishning mezonlari va baholash tizimini aniqlash va amalga oshirishga doir choralar-tadbirlar Dasturi to'g'risida»gi PQ-1464-sonli qaroriga asosan bu masalalar ham ko'rib chiqildi.

Tijorat banklarida kichik biznes sub'ektlariga kreditlarni ajratishda garovga qo'yilgan mulkni rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni kreditning umumiy summasida aks ettirish amaliyoti joriy qilindi⁴⁵.

Bank kredit siyosati garov kreditlashning bosqichida ham, keyingi monitoring bosqichlarida ham jismoniy va yuridik shaxslarining moliyaviy hisobotlariga nisbatan qo'yiladigan talablarni o'z ichiga olishi kerak. Moliyaviy hisobotlarni auditorlik tekshiruvlaridan o'tkazish, naqd pul oqimi va boshqa ma'lumotlar bo'yicha hisobotlarni taqdim etish yuzasidan qo'yiladigan talablar aniq ifodalanishi zarur.

Bank kredit siyosati garov kreditlashning uni berish vaqtidayoq kreditni to'lash manbasi (naqd pul yoki davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (xazina veksellari) bilan ta'minlangan kreditlar bundan mustasno) hisoblangan yagona asosi bo'lmasligi belgilab quyilishi zarur.

Kredit siyosati garovga olingan mulk turiga qarab garov mavzuiga nisbatan quyiladigan talablar va kreditning garov qiymatiga nisbatini o'z ichiga olishi kerak.

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-yanvardagi "2011-2015-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida islohotlar ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirish, mamlakatda ishchanlik muhitini shakllantirishning mezonlari va baholash tizimini aniqlash va amalga oshirishga doir choralar-tadbirlar Dasturi to'g'risida"gi PQ-1464-sonli qarori.

Mazkur banda garov predmeti sinchiklab baholanishi va uning bozor qiymati uni sotish lozim bo'lgan paytda yuzaga kelishi mumkin bulgan zarar o'rnini qoplashi lozimligi aniq yoritilishi zarur. Hujjatda garov predmeti mustaqil baholovchi va ichki bank baholovchisi tomonidan baholanadigan holatlar ko'rsatib o'tilishi kerak.

Kredit siyosati kreditlarni tasniflash tizimi aniq ifodalanishi lozim. Kredit bulimida ishlaydigan xodimlar kredit portfelidagi barcha ma'lum bulgan slabiy uzgarishkar tugrisida raxbariyatga xabar berishilari kerak. Qarzdor yok garov ahvoli yomonlashishini oldindan aniqlash ehtimoliy yuqotishlarni kamaytirish uchun juda muhimdir.

Shu va boshqa ijobiy o'zgarishlarning amaldagi ifodasi natijasida garov mulki bilan bog'liq munosabatlar takomillashib borayotganini ko'rish mumkin.

3.2. Respublikamiz tijorat banklarida mol-mulk garovi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish yo'llari

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, garov mexanizmini takomillashtirishga so'nggi yillarda keng qamrovda e'tibor berilayotganini hisobga olgan holda, garov munosabatlari yildan yilga takomillashib borayotganini aytib o'tish mumkin. Lekin shu bilan birga ushbu soha ham bir qator kamchiliklardan holi emas.

Tovar moddiy boyliklarning garov predmeti bo'lishi maqbulligining ikki omili mavjud bo'lib, bular boyliklarning sifati hamda kreditorni ularning saqlanishi ustidan nazorat qila olish imkoniyati hisoblanadi. Zero, garov predmeti sifatida qabul qilingan ahyolar, zarurat tug'ilganda, ya'ni kredit bo'yicha majburiyatlar bajarilmay qolgan hollar bo'yicha garov predmetiga undiruv qaratilganda, tijorat banki uchun moddiy naf keltira olishi kerak. Ya'ni, undiruv qaratilgan ushbu garov mulki sifatini qoniqarsizligi oqibatida bank uchun ortiqcha bosh og'rig'i paydo bo'ladi. Kredit bo'limi xodimlari uchun bundan ortiq yoqimsiz holat bo'lmasa kerak. Shu sabab, garov mulki sifati va holati u garov predmeti sifatida qabul qilinganda ham, shu bilan birga, garov shartnomasi amal qilish muddati davomida ham qattiq nazoratga olinishi lozim. Lekin, afsuski, ba'zida kredit bo'limi

xodimlarining sustkashligi yoki ish noteng taqsimlanishi natijasida xodimga yuklatilgan kredit yig`majildlarining ko`payib ketishi natijasida bu narsaga pastroq nazar bilan qaraladi.

Bundan tashqari xorij amaliyotining bir qancha ijobiy tomonlarini o`zimizda joriy etish imkoniyatlari va sharoitlari pastligi ham bir muncha achinarli. Bir qator rivojlangan xorij mamlakatlarida istalgan narsangizni garovga qoy`gan holda qarz yoki kredit olish imkoniyati mavjud, lekin bizda o`zimizda topilmagani sabab, yaqin insonlarimizning mol-mulkiga tayangan holda kredit olishga majbur bo`lib qolamiz, ba`zi holarda. Bizda, dunyoda anchagina likvid aktiv hisoblanuvchi qimmatli qog`ozlar bilan muomalalar juda sust, boshqacha aytganda yurtimizda qimmatli qog`oz nimaligini bilmay yashayotganlar juda ko`pchilikni tashkil qiladi, desak adashmagan bo`lamiz. Qimmatli qog`ozlarning ikkilamchi bozorining yaxshi rivojlanmaganligi, bizda bu imkoniyatlarni cheklaydi.

Shuningdek aholining kam ta'minlangan qatlamlarining daromad darajasi va ipoteka kreditlarining o'rtacha foiz stavkasi o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash maqsadida, beriladigan ipoteka kreditlarining foiz to'lovlarini respublika byudjeti va mahalliy byudjetlarning mablag`lari hisobidan subsidiyalashtirish tizimini joriy etish lozim. Chunki, bilamizki ipoteka kreditlaridan foydalanish uchun ham yaxshigina mablag`zahirasi bo`lishi lozim. 200-300 mln. so`mlik uylarni kreditga olish uchun ham kamida 25 foizlik boshlang`ich badal so`raladi, bu ham ta`minot sifatida. Lekin, oddiy o`ylab ko`rganda bir farzandni oliy o`quv yurtida shartnoma asosida o`qitish butun boshli bir oilani qiynab qo`yayotgan bir vaziyatda, uning keyingi hayotini o`ylab ipoteka krediti asosida uy olib berish uchun 50-60 mln. so`mlik dastlanki badalni to`lash oson emas.

Shuningdek, O'zbekiston sharoitida banklar tomonidan kreditni qaytarish ta'minoti sifatida garovga olingan ko'chmas mulkni sotish bilan bog`liq huquqni amalga oshirish amaliyoti nihoyatda murakkab va uzoq davom etadigan, katta miqdordagi mablag` xarajatlarni talab etadigan sudda ish ko'rish bilan bog`liq bo'lish holati shakllangan. Amaldagi qonunchilik hujjatlariga ko'ra garovga

qo'yilgan mulkka kreditor foydasiga undiruvni qaytarish faqat sud orqali amalga oshirilishi mumkin. Ammo sud tomonidan qarz beruvchi foydasiga qaror chiqarilgan taqdirda ham ko'chmas mulkka undiruvni qaratish mushkulligicha qolmoqda.

Ma'lumki, 2006-yil 4-oktyabrda O'zbekiston Respublikasining «Ipoteka to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning avvalgi ipoteka munosabatlarini tartibga soluvchi qonun va qonun osti hujjatlaridan farqi shundaki, u qonun qonunchiligimizda butunlay yangi tushuncha hisoblangan «Garov xati» tushunchasini kiritdi. Garov xati fuqarolik va tijorat muomalasidagi yangi turdagi qimmatli qog'oz hisoblanadi. Garov xati institutini kiritishning zarurligi, birinchidan, garov xatini mavjudligi, uning egasi, ya'ni garov saqlovchi huquqini tasdiqlashini yengillashtiradi; ikkinchidan, garov xatini salohiyati investorlar o'rtasida joylashtirish maqsadida, u shaxsiy qimmatli qog'ozdan daromad keltiradigan instrumentga aylanishi mumkin; uchinichidan, garov xatidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish uni o'zini ham garovga qo'yish ipoteka saqlovchisiga qayta moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratadi. Garov xati instituti kredit tashkilotlariga ipoteka kreditlari uchun zarur bo'lgan «uzoq muddatli» mablag'larni jalb etish imkonini beradi, oddiy kreditlardan farqli ravishda, ipoteka kreditlari uzoq muddatga va nisbatan katta bo'lmagan foiz stavkalari bilan beriladi.

Lekin hozirgi vaqtda tijorat banklari tomonidan garov xatlari bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi yo'lga qo'yilmagan. Agar tijorat banklari tomonidan qayta moliyalashning mazkur tizimi joriy etilsa, banklardagi resurslar muammosini nisbatan hal etish, ularni samaradorligini oshirish hamda ipoteka kreditlarini berilishiga zamin yaratilar edi.

Navbatdagi garovni rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy jihatlar yaxshi ishlab chiqilgan bo'lsa ham, amaliyotda buni kam uchratamiz. Garovda turgan mol-mulkni garovga qo'yuvchi tomonidan boshqa shaxsga (garovga oluvchiga) boshqa talablarni bajarish uchun berish navbatdagi garov hisoblanadi.

Agar garov to'g'risidagi oldingi shartnomalarda navbatdagi garov taqiqlab qo'yilgan bo'lmasa, navbatdagi garovga yo'l qo'yiladi. Navbatdagi garovga oluvchining talabi bu mol-mulkning qiymatidan avvalgi garovga oluvchilarning talablaridan keyin qanoatlantiriladi. Garovga qo'yuvchi garovga oluvchilarning har biriga mazkur mol-mulkning barcha mavjud garovlari to'g'risida, shuningdek bu garovlar bilan ta'minlangan majburiyatlarning miqdori haqida ma'lum qilishi shart va ushbu majburiyatni bajarmaslik tufayli garovga oluvchilarga yetkazilgan zarar uchun javob beradi. Navbatdagi garovni rivojlantirish garov munosabatlarini yana ham yuqori cho'qqilarga olib chiqqan bo'lardi.

Respublikamizdagi tijorat banklari ipoteka kreditlarini asosan o'z mablag'lari hisobidan taqdim etmoqdalar. Bu esa banklarda uzoq muddatli moliyaviy resurslarni taqchilligi muammosini keltirib chiqaradi. Rivojlangan xorijiy davlatlar va Rossiya kabi bir qator o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki ipoteka kreditlari ta'minoti uchun yetarli darajada moliyaviy resurslarni jalb etish mexanizmini yaratmay turib mamlakatda ipoteka munosabatlarini rivojlantirish mumkin emas. Moliyaviy resurslarning yetishmasligi muammosi talabini qondirish uchun ipoteka qimmatli qog'ozlarining chiqarilishini taqazo etadi.

Garovga qo'yiladigan talablar ham anchagina ko'p. Misol uchun, garovga taqdim etilayotgan mol-mulk quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- boshqa garovdan va majburiyatlardan ozod bo'lishi;
- yuqori darajada likvid bo'lishi, ya'ni tezda sotish orqali pul mablag'iga aylantirish imkoniyati mavjudligi;
- garovga qo'yuvchining garov narsasini tasarruf etish va garovga qo'yish to'liq huquqi va vakolatining mavjudligi;
- kredit (lizing, kafolat) va hisoblangan foizlarni to'liq qoplashi;
- uzoq muddat saqlash xususiyati mavjudligi (mulkning saqlanish muddati kredit muddatidan kam bo'lmasligi kerak);
- bank xodimlari tomonidan nazorat qilib borilishi imkoniyati mavjudligi.

Ushbu talablarni nisbatan biroz osonlashtirish, mijozlarning garov munosabatlaridagi ishtirokini yanada oshiradi. Masalan, boshqa garovdan ozod bo'lish degani mijozlar uchun qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Ya'ni, bu navbatdagi garovni amalga oshirishda qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Shunday mexanizmni joriy etish lozimki, bunda moliyaviy holati yaxshi bo'lgan kredit oluvchi bir garov predmetini bir nechta majburiyatni ta'minlash uchun joylashtirishi mumkin bo'ladi.

Baholash mexanizmini ham nisbatan takomillashtirish lozim. Chunki, baholash tashkiloti yuz varoqlik hisobotni taqdim etsada, garov predmetining qiymati bankda yana qayta baholanadi. Baholash to'g'risidagi xulosa qonun talablariga javob bermagan yoki mulkning baholovchi tomonidan belgilangan qiymatining to'g'riligiga shubha tug'ilgan hollarda, bunday xulosani qabul qilmaslik va mijozdan mulkni yetarli tajribaga ega bo'lgan, nufuzli baholash tashkilotida baholashni talab qilib, baholashda bankning malakali mutaxassisi ishtiroki va ta'sirini ta'minlash lozim bo'ladi. Bunda, zarur bo'lgan holda, baholash to'g'risidagi hisobotning ishonchliligini tekshirish uchun belgilangan tartibda boshqa baholovchi tashkilot tomonidan shartnoma asosida ekspertizadan o'tkazilishi mumkin. Baholash to'g'risidagi hisobotda baholash ob'yekti qiymatini hisoblash chiqish usulini asoslash uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar ham ko'rsatilishi mumkin. Agar baholash ob'yektini baholashdan o'tkazishda bozor qiymatidan farqlanuvchi qiymat aniqlangan bo'lsa, baholash to'g'risidagi hisobotda bahoni aniqlash mezonlari va baholash ob'yektining bozor qiymatini aniqlash imkoniyatidan voz kechish sabablari ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Barchaga ma'lumki, ish bor joyda kamchilik bo'ladi, albatta. Lekin, bu kamchiliklarga ko'nikib ishlagandan ko'ra, ularni bartaraf etish hamma uchun maqbul holat hisoblanadi. O'ylaymizki, garov munosabatlaridagi ba'zi kamchiliklarni bartaraf etish va mas'uliyatli ish davomida sustkashlikka yo'l qo'ymaslik orqali kredit va garov munosabatlarida ijobiy muvaffaqiyatlarga erishish turgan gap. Ya'ni, bu ijobiy o'zgarishlar kreditlarning taqdim etilishi va

qaytarilishi tartibining samaradorligi ortishiga, banklar faoliyatining takomillashishiga hamda o`z navbatida mijozlarning banklarga ishonchi ortishiga olib keladi.

Garov faoliyati bilan alohida shug`ullanuvchi tashkilotlarni tashkil etish ham bu sohani yanada rivojlantirishi mumkin.

3-bob bo`yicha xulosa

Aytish joizki, garov munosabatlari kredit munosabatlarining ajralmas qismi hisoblangan holda, juda keng qamrovda namoyon bo`ladi. Garov munosabatlarida, yana ham aniqroq aytganda, garov predmetini belgilash, mol-mulk garovini qabul qilish, uning sifati va holati bo`yicha nazoratni tashkil etishda bir qancha kamchiliklar mavjudligini, lekin shu bilan birga ushbu sohada so`nggi yillarda qator o`zgarishlar amalga oshirilganini ta`kidlab o`tish lozim. Mol-mulk garovini qabul qilish tartibini biroz soddalashtirish, ta`minot turlari bo`yicha mijozlarga kengroq imkoniyatlar yaratish bu sohani yanada takomillashtiradi.

Mijozlarning garov munosabatlaridagi bilim va ko`nikmalarini oshirish ham ularning bu borada ishonchli qarorlar qabul qilishiga undaydi. Bu esa o`z navbatida kredit bo`limi xodimlarining ishini yengillashtirib, garov hamda kredit munosabatlarini yanada yaxshilaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Mol-mulk garovi va uni qabul qilish tartibi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida amalga oshirilgan amaliy tahlil natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- Yurtimizda qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori hali to'laligicha shakllanib ulgurmagan, buning ustiga likvidligi yuqori bo'lgan aksiya va obligatsiyalarni topish ham qiyin, bo'lsa ham uni hech kim savdoga qo'ymaydi. Shu sabab, bizda qimmatli qog'ozlar garovi to'grisida biror fikr bildirish juda qiyin;

- Jismoniy shaxslarning hayoti uchun zarur bo'lgan uy-joy, kvartira va boshqa ashyolarga undiruvni qaratish taqiqlangan. Ya'ni, bu bilan ko'rishimiz mumkinki, bizning mamlakatimizda ijtimoiy himoya alohida e'tibor beriladi. Shu sababli, bu holatni salbiy deb ham aytib bo'lmaydi;

- O'zbekistonda yer davlat mulkidir va u foydalanuvchilar: fermer, shirkat xo'jaliklari va boshqalarga ijaraga, dehqon xo'jaliklariga esa umirbod meros qilib qoldiriladigan tarzda foydalanish uchun beriladi. Qonun fermer xo'jaliklariga yer uchastkasini ijaraga olish huquqini bank kreditini qaytarilish ta'minoti sifatida garovga qo'yishiga ruxsat bergan;

- Yer uchastkasidan foydalanish huquqini kreditni qaytarish ta'minoti sifatida garovga qo'yilganda va kredit qaytarilmaganda yer uchastkasini ijaraga olish huquqi boshqa shaxsga sotiladi va natijada yer uchastkasini ijaraga olgan shaxsgina o'zgarib, yerning mulkdori o'zgarmasdan qoladi. Ijara muddati tugagandan keyin ushbu yer uchastkasi qaytadan boshqa shaxsga ijaraga berilishi yoki boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin;

- Respublikamizdagi kreditlash amaliyotlari bilan bog'liq dolzarb masalalardan biri bu tijorat banklarining yetarli moliyaviy resurslariga ega emasligidadir. Hozirgi kunda respublikamizdagi tijorat banklari kreditlarni asosan o'z mablag'lari hisobidan taqdim etmoqdalar. Ammo, tijorat banklari amaliyotida qisqa muddatli mablag'lar ko'p bo'lganligi holda uzoq muddatli mablag'lar deyarli

kam. Kreditlarning uzoq muddatga berilishini inobatga olsak, tijorat banklari aynan uzoq muddatli resurslarga ehtiyoj sezadi;

- Hozirgi kunda asosiy kamchiliklardan biri sifatida kredit bozori resurs bazasining yetarli shakllanmaganligini ko'rsatish mumkin. Qimmatli qog'ozlar mexanizmining rivojlanishi nafaqat kredit bozorining rivojlanishi, balki hozirgi kunda mamlakatda sust rivojlanayotgan fond bozorinining faollashuviga ham turtki bo'ladi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar fond bozorinining 50 foizini aynan ipoteka qimmatli qog'ozlari tashkil etadi;

- Hatto, imtiyozli kredit olayotganlarni ham qiynaydigan bir muammo bor. Bu esa ta'minot. Yaxshi biznes g'oyanga bo'lsa-yu, imtiyozli kredit olish uchun garovga qo'yishga mol-mulking bo'lmasa, bu ham achinarli. Lekin, so'nggi yillarda bu borada ham qator yangilanishlarning guvohi bo'lmoqdamiz. Birgina, prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan bir qator qarorlar orqali ham kreditlarning foizlari, ham ta'minot turlari osonlashtirilmoqda;

- Garov predmeti sifatida qabul qilingan ahyolar, zarurat tug'ilganda, ya'ni kredit bo'yicha majburiyatlar bajarilmay qolgan hollar bo'yicha garov predmetiga undiruv qaratilganda, tijorat banki uchun moddiy naf keltira olishi kerak. Ya'ni, undiruv qaratilgan ushbu garov mulki sifatini qoniqarsizligi oqibatida bank uchun ortiqcha bosh og'rig'i paydo bo'ladi.

Qilingan xulosalar asosida bitiruv malakiaviy ishi obykti va predmeti bo'yicha quyidagi takliflar berildi:

1. Garov munosabatlarida yuridik va jismoniy shaxslarga yengilliklar yaratish hamda ular ushbu munosabatlarni yanada teranroq anglab yetishlari uchun alohida konsalting bo'limlarini joriy etish, aholi bilan ochiq muloqot tashkil etib, ularni qiziqtirgan savollarga aniqroq ma'lumotlar bilan javob qaytarish, o'z navbatida, kelgusida banklar faoliyati kengayishiga olib keladi.

2. Kredit bo'limi xodimlarining sustkashligi yoki ish noteng taqsimlanishi natijasida xodimga yuklatilgan kredit yig'majildlarining ko'payib ketishi natijasida bu garov predmetini nazorat qilib borishga pastroq nazar bilan qaraladi. Bu holatni

yaxshilash uchun xodimlar bilan tushuntirish ishlari olib borish yoki qo'shimcha shtat ochish lozim.

3. Aholining kam ta'minlangan qatlamlarining daromad darajasi va ipoteka kreditlarining o'rtacha foiz stavkasi o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash maqsadida, beriladigan ipoteka kreditlarining foiz to'lovlarini respublika byudjeti va mahalliy byudjetlarning mablag'lari hisobidan subsidiyalashtirish tizimini joriy etish lozim.

4. O'zbekiston sharoitida banklar tomonidan kreditni qaytarish ta'minoti sifatida garovga olingan ko'chmas mulkni sotish bilan bog'liq huquqni amalga oshirish amaliyoti nihoyatda murakkab va uzoq davom etadigan, katta miqdordagi mablag' xarajatlarni talab etadigan sudda ish ko'rish bilan bog'liq bo'lish holati shakllangan. Ushbu holatni ham biroz soddalashtirish kerak.

5. Hozirgi vaqtda tijorat banklari tomonidan garov xatlari bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi yo'lga qo'yilmagan. Agar tijorat banklari tomonidan qayta moliyalashning mazkur tizimi joriy etilsa, banklardagi resurslar muammosini nisbatan hal etish, ularni samaradorligini oshirish hamda ipoteka kreditlarini berilishiga zamin yaratilar edi.

O'ylaymizki, ushbu takliflar garov munosabatlarida muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi hamda bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarning ham yanada kengayishiga va yaxshilanishiga turtki bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, garov munosabatlari, mol-mulk garovini qabul qilish va ular bilan ishlash tartibi yurtimizda asta-sekin rivojlanib bormoqda hamda yuzaga kelayotgan kamchiliklarni bartaraf etish faqat ijobiy ta'sir ko'rsatishiga ishonamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Me`yoriy – huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T: "O'zbekiston", 2008-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. - T.; 2008-yil.
3. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonun, T.: "O'zbekiston", 1995-yil 21-dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun, T.: "O'zbekiston", 1996-yil 25-aprel.
5. O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi qonuni. 1996-yil 26-dekabr, O'Rq-343-I-son.
6. O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi qonuni. 1992-yil 9-dekabr. №:614-I.
7. O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati to'g'risida"gi qonuni. 1999-yil 19-avgust, O'Rq-811-I-son.
8. O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi qonuni. 2003-yil 30-avgust. №530-II.
9. O'zbekiston Respublikasining "Ipoteka to'g'risida"gi qonuni. 2006-yil 4-oktyabr, O'Rq-58-son.
10. O'zbekiston Respublikasining "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi qonuni. 2011-yil 4-oktyabr.
11. O'zbekiston Respublikasining "Garov reestri to'g'risida"gi qonuni. 2013-yil 23-oktyabr, O'Rq-356-son.
12. O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonuni, 2001-yil 29-avgust.
13. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi "2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish qamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-yanvardagi “2011-2015-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida islohotlar ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirish, mamlakatda ishchanlik muhitini shakllantirishning mezonlari va baholash tizimini aniqlash va amalga oshirishga doir choralar-tadbirlar Dasturi to'g'risida”gi PQ-1464-sonli qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-yanvardagi “Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2746-sonli qarori.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PQ-4947-sonli qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 905-raqam bilan davlat ro'yxatiga olingan “Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida” nizom, 2000-yil 2-mart.

18. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1336-raqam bilan davlat ro'yxatiga olingan “Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qiymatini baholash tartibi to'g'risida” nizom, 2004-yil 18-aprel.

19. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 1345-raqam bilan davlat ro'yxatiga olingan “Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi to'g'risida” nizom, 2004-yil 30-aprel.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va maruzalari

20. Karimov I.A. “O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida”. - Toshkent: “O'zbekiston”, 1995-yil, 269 bet.

21. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari”.- T.: “O'zbekiston”, 2009-yil, 44 bet.

22. Karimov I.A. “Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida”. Tuzuvchi F.M.Mullajanov. -T.: “O'zbekiston”, 2011-yil, 528 bet.

23. Mirziyoev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”- Toshkent: “O'zbekiston”, 2017-yil.

24. Mirziyoev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak”- Toshkent: “O'zbekiston”, 2017-yil.

3. Darslik va o'quv adabiyotlari

25. Abdullayeva SH.Z. Pul, kredit va banklar. Darslik.-T.: “Iqtisod-Moliya”, 2008-yil, 335 bet.

26. Abdullayeva SH. Z. Bank ishi: O'quv qo'llanma. - Toshkent: Moliya, 2010, 312 bet.

27. Abdullaev Yo., Qoraliyev T., Toshmurodov SH., Abdullaeva S. Bank ishi. O'quv qo'llanma -T.: “Iqtisod-Moliya”, 2010-yil, 532 bet.

28. Azizov U., Qoraliyev T., Boboqulov T., Abdullayeva Sh. va boshqalar. Bank ishi. Darslik. -T.: “Fan va texnologiya”, 2016-yil, 640 bet.

29. Белоглазова Г.Н., Кроливецкая Л.П. Банковское дело. Учебник для вузов. 2-э изд. “Питер”, 2010-yil, 400с.

30. Гребеник Т.В. Управление качеством кредитного портфеля коммерческого банка в период посткризисного развития: -М.: 2015 г., 214с.

31. Kadirov A.K. Tijorat banklarida kredit berish mexanizmini takomillashtirish yo'llari. Iqtisodi fanlari nomzodi ... Diss.avtoreferati.-T.: BMA, 2009-yil, 21 bet.

32. Лаврушин О.И. Банковское дело. учебник 2-э изд. Перераб и доп/ О.И. Лаврушина. Москва: Финансы и статистика, 2005 г., 672с.

33. Лаврушин О.И., Мамонова И.Д, Валенцева Н.И. Банковское дело. Учебник. М. КНОРУС, 2009 г., 768с.

34. Лаврушин О.И. Банковское дело. Учебное пособие. 3-э изд. Перераб и доп/ М. КНОРУС, 2009 г., 348с.

35. Omonov A.A., Qoraliyev T.M. “Banklarda buxgalteriya hisobi”. Darslik. T.: “Iqtisod-Moliya”, 2014-yil, 295 bet.

36. Saidov D.A. Tijorat banklarining qisqa muddatli kreditlash amaliyoti va uni takomillashtirish yo'llari: Iqtisod fanlari nomzodi ... Dis.//-T.: BMA, 2007-yil, 45 bet.

4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar)

37. O'zbekiston Respublikasi XATB “Orient Finans” 2015-yillik hisobot jurnali, 2016-yil.

38. O'zbekiston Respublikasi XATB “Orient Finans” 2016-yillik hisobot jurnali, 2017-yil.

39. “Summut finis” MCHJ baholovchi tashkilotning garov mulkini baholash bo'yicha hisoboti, 2017-yil 2-may.

40. Bozor , Pul va Kredit jurnali 2016-yil 8-son 16 bet.

41. Bozor , Pul va Kredit jurnali 2016-yil 6-son 14 bet.

5. Internet saytlari

42. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumatining rasmiy veb sayti.

43. <http://www.uza.uz> – O'zbekiston axborot agentligi rasmiy veb sayti.

44. <http://www.stat.uz> - Davlat Statistika qo'mitasining rasmiy veb sayti.

45. www.garov.uz – “Garov reestri” DUKning rasmiy veb sayti.

46. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining sayti.

47. www.lex.uz - Qonunchilik hujjatlari milliy axborot bazasi.

48. www.bpk.uz - Bozor, pul, kredit oylik jurnalining rasmiy veb sayti.

49. www.wikipedia.org – Vikipediya ma'lumotlar bazasi veb sayti.

50. www.ecb.europa.eu – Yevropa Markaziy Banki rasmiy veb sayti.